

## IV XALQARO BAXSHICHILIK SAN’ATI FESTIVALI ISHTIROKCHILARIGA

Hurmatli festival qatnashchilari, muh-taram mehmonlar!

Avvalo, siz, azizlarni ochiq osmon ostidagi betakror muzey shahar — qadimiy Xivada o‘tkazilayotgan **IV Xalqaro baxshichilik san’ati festivali**ning ochilishi bilan chin qalbimdan muborakbod etaman.

Bugungi san’at bayramida ishtirok etayotgan nufuzli xalqaro tashkilotlar va qardosh mamlakatlar vakillariga, dunyoning qirqdan ziyod mamlakatidan kelgan xalq ijodiyoti namoyandalari, atqoli madaniyat va san’at arboblariга samimiy tashakkurim, yuksak hurmatim va ezuq tilaklarimni bildiraman.

Saxovatli O‘zbekiston zaminiga, ko‘hna Xorazm diyoriga xush kelibsiz!

Qadri do‘stlar! Xalqaro nufuzi tobora ortib borayotgan mazkur anjuman bu yil ko‘hna Sharq gavhari — betakror Xorazm diyorida o‘tkazilayotgani unga alohida ruh va mazmun bag‘ishlamoqda. Bu o‘lkaning dostonchilik maktabi g‘oyat qadimiy va boy tarixga ega bo‘lib, “Lazgi” kabi dunyoga mashhur mumtoz kuy-qo‘shiqlari, go‘zal raqslari aynan ana shu azim daryodan oziqlanib kelmoqda, desak, to‘g‘ri bo‘ladi.

Bu qutlug‘ zamindan yetishib chiqqan O‘zbekiston xalq baxshilari “Bola baxshi” — Qurbonnazar Abdullayev, “Qalandar baxshi” — Ro‘zimboy Normatov, Abdulla Qurbonnazarov, Yetmishboy Abdullayev kabi

yorqin ovoz va iste‘dod sohiblari tomonidan yuksak pardalarda kuylangan “Oshiq G‘arib va Shohsanam”, “Go‘ro‘g‘li”, “Avazxon”, “Alpomish” va “Xirmondali” kabi xalq dostonlari milliy madaniyatimizning o‘lmas durdonalari sifatida ma‘naviyatimiz xazinasidan mustahkam joy egallaganini chuqur minnatdorlik bilan e‘tirof etamiz va baxshichilik san’atining bugungi davomchilariga ijodiy yutuq va ravnaq tilaymiz.

Hurmatli festival ishtirokchilari! Festival kunlarida sizlar san’atni chin dildan sevadigan mehmondo‘st, bag‘rikeng xalqimiz bilan samimiy muloqotlar o‘tkazib, yurtimizning boy tarixi, madaniyati va bezavol qadriyatlarini, tabarruk maskanlari, Yangi O‘zbekistonning bugungi taraqqiyot yutuqlari, jumladan, baxshichilik san’atini rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar bilan yaqindan tanishib, yorqin taassurotlarga ega bo‘lasiz, deb ishonaman. Fursatdan foydalanib, tanlov ishtirokchilari hamda festival doirasida o‘tkaziladigan xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya ishiga muvaffaqiyat tilayman.

Eng ezuq va xalqchil his-tuyg‘ularni tarannum etishda sizlarga sihat-salomatlik, kuch-g‘ayrat va ilhom doimo yor bo‘lsin!

**Shavkat MIRZIYOYEV,**  
**O‘zbekiston Respublikasi**  
**Prezidenti**

## Xalqaro festival O‘ZLIKNI TOPISH YO‘LI: ALPOMISHDAN HOMERGACHA



Mamlakatimiz rahbari tashabbusi bilan Xalqaro baxshichilik san’ati festivalini keng miqyosda o‘tkazish an‘anaga aylandi. Shu vaqtgacha festival Termiz, Nukus, Guliston shaharlarida xalqaro miqyosda, yuksak maqomda o‘tkazildi. Bu yil ushbu xalqaro festivalga Xiva shahri mezbonlik qilmoqda. Zero, qadimdan ko‘hna Xorazm hududida baxshichilik va xalfachilik an‘anasi rivojlangan. Bugun ham ushbu qadriyat asrab-avaylab kelinmoqda. Bunda, albatta, Xalqaro baxshichilik san’ati festivali, umuman, yurtimizda o‘zlikni anglash, nomoddiy madaniy merosni asrab-avaylashga qaratilgan ishlar muhim o‘rin tutmoqda.



Tan olish kerak: global jamiyatlarda epik an‘ana tamoman so‘nib yoxud susayib bormoqda. Shunday bir holatda yurtimizda baxshichilik, jirovlik, oqinlik, xalfachilik san’ati nafaqat saqlab qolinayotgani, balki xalqaro miqyosdagi festival hamda ilmiy anjumanlar o‘tkazish orqali keng targ‘ib etilayotgani katta hodisa. Zero, epik tafakkur rivojlangan mamlakatlar orasida o‘z o‘rnini topayotgan, kundan kunga yangidan-yangi qiyofa kasb etib, yuksalib borayotgan vatanimizning bugungi shiddati va kelajagini belgilab beradi.

Shu o‘rinda haqli savol tug‘iladi: baxshi kim, uning dunyo eposidagi o‘rni va

ahamiyati qanday? Bugun nima uchun xalq og‘zaki ijodini, xususan, baxshichilikni keng targ‘ib etish kerak?

Baxshi deganda xorijda ko‘proq Homer tilga olinadi. Uning baxshiligini amerikalik olimlar M.Perri va A.Lord rad etib bo‘lmas dalillar bilan isbotlagan. Biroq folklorshunoslikdagi ko‘p nazariy masalalar oldingi — Homer individual ijodkor, shoir sifatida urg‘ulangani davr bilan bog‘liq holatda qolib kelmoqda. Oqibatda folklorshunoslikdagi ayrim nazariy masalalar hanuzgacha o‘z yechimini kutib turibdi.

► **Davomi 6-betda**

## GLOBAL TEBRANISHLAR DAVRIDA MILLIY STRATEGIK YONDASHUV

### Dolzarb mavzu

**Bugun global siyosiy-iqtisodiy jarayonlar tobora keskin tus olmoqda. Mazkur holat, ya‘ni yirik davlatlar o‘rtasidagi iqtisodiy ziddiyatlar butun dunyoga, jumladan, yurtimizga ham ta‘sir ko‘rsatmoqda. Bunday sharoitda har bir davlat, xalq o‘z strategiyasini aniq belgilashi va milliy manfaatlarini qat‘iy himoya qilishi lozim.**

Dunyo avvalgidek emasligi bor gap. Ayni paytda mintaqaviy va global miqyosda iqtisodiy-siyosiy barqarorlik tobora yo‘qolib bormoqda. Xalqaro savdo maydonlari, ilgari ishonchli deyilgan institutlar endi o‘z funksiyalarini to‘liq bajara olmayapti. Bunday vaziyat tabiiy ravishda davlatlardan o‘z strategiyasini qaytadan ko‘rib chiqish, yangicha yondashuvlar bilan harakatlanishni talab etmoqda.

Prezidentimiz raisligida shu yil 18-aprel kuni **dunyoda yuz berayotgan iqtisodiy tebranishlarning mamlakatimiz soha va tarmoqlariga ta‘sirini yumshatish chora-tadbirlari yuzasidan o‘tkazilgan videoselektor** yig‘ilishi aynan mana shu keskin geoiqtisodiy muhitda O‘zbekiston



qanday yo‘l tanlayotganini aniq ifoda etdi. Bu yig‘ilishda davlatimiz rahbarining oldindan strategik tahlil qilish qobiliyati va global iqtisodiy o‘zgarishlarning mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga ta‘sirini chuqur anglagan holda o‘z vaqtda

zarur choralarni ko‘rishdagi salohiyati yana bir bor namoyon bo‘ldi.

Yig‘ilishda mahalliy ishlab chiqarishni rivojlantirish, standartlar va sertifikatlash tizimini takomillashtirish, raqobatbardoshlikni mustahkamlash,

rahbarlarning mas‘uliyatini oshirish, ichki byurokratiya va korrupsiyaga qarshi kurash yo‘nalishlari alohida muhokama qilindi.

► **Davomi 2-betda**

## KORRUPSIYA – jamiyat tanasidagi saraton

## “NAFSING SENG TOBE BO‘LSA, INSONSEN...” YOXUD KORRUPSIYA — ISLOHOTLAR KUSHANDASI

**Ko‘hna tarixga murojaat qiladigan bo‘lsak, ham Sharq, ham G‘arb mutafakkirlari madaniyat, ma‘naviyat, ma‘rifat, tarbiya masalalariga har doim alohida diqqat va e‘tibor bilan munosabatda bo‘lgan. Chunki har qanday insonning eng asosiy mohiyati uning iqtisodiy imkoniyatlariyu to‘plab qo‘yilgan mol-mulkklari bilan emas, aksincha, ma‘naviyati, eng avvalo, tarbiyasi, tarbiyalanganlik darajasi bilan o‘lchab kelingan.**

O‘zbek xalqi milliy-madaniy merosi, ijtimoiy hayoti tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, yurtimizda uzoq ming yillar davomida milliy tarbiyaning mukammal tizimi yaratilganiga guvoh bo‘lamiz. Shuning uchun bunday tarbiya tizimi boshqa ko‘plab xalqlarni doimo hayratga solib keladi. Unda adolat, haqiqat, insof, go‘zallik, halol mehnat, rizq-ro‘z, saxovat, himmat, olijanoblik, sabr-toqat, qanoat, umid, va‘daga vafu, yaxshilik, shukronalik, shirinso‘zlik, do‘stlik, vatanparvarlik, millatparvarlik, mehnatsevarlik kabi yuzlab ijobiy sifatlar hayotiy ma‘nosini topgan.

Kimki o‘zida ana shu xislatlarni qaror toptirgan bo‘lsa, uning hayoti turli balo-qazolar, illatlardan xoli bo‘lib, tinch, farovon va baxt-u saodat og‘ushida yashaydi. Demakki, shaxsni kamolot pillapoyasiga olib chiquvchi insoniy fazilatlar xalqimizning asriy va boqiy tarixiga borib taqaladi.

### Davlatning odilona va oqilona siyosati

Gapni uzoqdan boshlashimizning boisi bor. Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashining shu yil 5-mart kuni bo‘lib



o‘tgan yig‘ilishida davlatimiz rahbari bu borada amalga oshirilayotgan ishlar, qo‘lga kiritilayotgan yutuqlar to‘g‘risida aniq ma‘lumotlar berdi. Ayniqsa, korrupsiyaga qarshi umumxalq harakatini tartibga solish bo‘yicha maxsus tizim yaratilgani, parlament palatalarida mas‘ul qo‘mitalar, eng muhimi, Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy

kengashi va agentlik tashkil etilgani bu boradagi dadil qadamlar ekani ta‘kidlandi.

Mana shunday tarzda ilk marotaba yig‘ilish o‘tkazilishi korrupsiyaga qarshi kurashning yangi bosqichga chiqqani, qolaversa, mazkur illatni tag-tugi bilan yo‘q qilishdan iborat strategik yo‘l tanlanganidan darak beradi. Masalaning o‘ta muhimligini e‘tiborga olib, ushbu illatni to‘liq bartaraf etishga yo‘naltirilgan 55 ta maqsad belgilandi, 5 ta qonun, 12 ta farmon va qaror ishlab chiqilishi lozimligi qayd qilindi.

Bunday tadbirlar, shubhasiz, jamiyatni yanada rivojlantiradi, barqarorlashtiradi, xalqimizning davlatga ishonchini tobora oshiradi. Ammo bugungi kunda transmilliy mazmunga aylanib bo‘lgan korrupsiya har qanday mamlakat va jamiyatning ma‘naviy asoslariga putur yetkazib, iqtisodiy taraqqiyotni izdan chiqaradigan, qonun ustuvorligi va xalqning davlat siyosatiga ishonchini pasaytiradigan, demokratik institutlar rivojiga xalaqit qiluvchi xatarli umumbashariy tahdidlardan biri bo‘lib qolmoqda.

► **Davomi 3-betda**

## TOSHKENT – XORAZM: 10 TA ZAMONAVIY YO‘LOVCHI VAGONI FOYDALANISHGA TOPSHIRILDI



Xorijlik sayyohlardan yoki O‘zbekistonni sayohat qilish istagidagi yaqinlarimdan biri yurtimizning diqqatga sazovor manzillarini so‘rsa, birinchi bo‘lib dunyoga sayqali ro‘yi zamin (yer yuzining sayqali) Samarqand, qubbatul islom (islom dinining markazi) Buxoro hamda “ochiq osmon ostidagi muzey” Xiva shaharlarini sanayman. Menimcha, har bir vatandoshning xayoliga dastavval shu uchta tarixiy shahrimiz keladi. Chunki bu yerlarga bir marta borgan odamning qaytgisi kelmaydi. Go‘yoki boshqa bir zamonga, sayyoraга tushib qolgandek his qiladi o‘zini.

Ammo Xivaga borishni tavsiya qilganimda, ko‘pchilik poytaxtdan qancha uzoq ekanini so‘raydi. Chaması 1 ming 100 kilometr ekanini aytсам, “eh-he” deb o‘yga tolib qoladi yoki darrov samolyotning keyingi reysi qachonligi bilan qiziqadi. Men esa “Haqiqatda sayohat qilmoqchi bo‘lsang, poyezd yoki avtoyo‘l orqali bor. Yo‘lning o‘zidan ham olam-olam taassurot olasan”, deya maslahat beraman. U esa:

— Qo‘ysang-chi, poyezdda shundan shu yoqqa borib bo‘ladimi, — deydi.

— Qizilqumning bepoyon cho‘llarini kesib o‘tmay, Amudaryo havosidan to‘yib nafas olmay, Xivaga bordin deb bo‘ladimi, — deya ko‘ndirishga urinaman.

Lekin ko‘pchilik yo‘l uzoqligi, transport noqulayligini aytib, Xivaga borishni kechiktiradi.

► **Davomi 2-betda**

# BAG‘RIKENG JAMIYAT – BARQAROR DAVLAT

## USHBU TAMOYIL ASOSIDA IJTIMOIIY-MA’NAVIY MUHIT BARQARORLIGI TA’MINLANADI

Yurtimizda diniy sohada davlat siyosatining takomillashuvi, fuqarolarning diniy e’tiqod erkinligi kafolatlanishi va diniy sohaga oid masalalarning huquqiy asosda hal etilishi borasida tub burilish yuz bermoqda. Bu borada ilgari surilgan konseptual yondashuvlar nafaqat mamlakat ichida, balki xalqaro maydonda ham e’tirof etilmoqda.

Xususan, davlatimiz rahbarining shu yil 21-apreldagi “Fuqarolarning vijdon erkinligi huquqi kafolatlarini yanada mustahkamlash hamda diniy-ma’rifiy sohadagi islohotlarni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to’g’risida”gi farmoni ushbu yo’nalishdagi islohotlar uchun muhim hujjatdir. Zero, u orqali davlat-din munosabatlari ochiqligi, shaffofligi, diniy tashkilotlarning huquqiy maqomini

mustahkamlash, shuningdek, diniy-ma’rifiy faoliyatni ilmiylik, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida tashkil etish kabi ustuvor vazifalar belgilab berildi.

Farmon nafaqat diniy sohada faoliyat yuritayotgan mutasaddilar, balki keng jamoat-chilik, ilmiy doiralar, xalqaro ekspertlar tomonidan ham ijobiy baholanoqda. Chunki u O‘zbekistonning inson huquqlari, xususan, vijdon erkinligi bo’yicha o‘z zimmasiga olgan

majburiyatlarni amalda ro’yobga chiqarishga intilayotganini yaqqol namoyon etdi.

Prezidentimizning 2017-yil 23-iyundagi qarori bilan Toshkent shahrida O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi tashkil etilgan edi.

Bugun dunyoda diniy ekstremizm va terrorizm tahdidi kuchayib borayotgani kuzatilmoqda. Bu holat ko’plab jamiyatlarda tinchlik va barqarorlikka tahdid solmoqda. Radikalizm va ekstremizmning asosiy sabablaridan biri diniy savodsizlikdir.

Shu ma’noda, farmonda jamiyatda vijdon erkinligini kafolatlash, diniy bag’rikenglik, fuqarolararo totuvlik hamda ijtimoiy-ma’naviy muhit barqarorligini ta’minlash maqsadida “Bag’rikeng jamiyat — barqaror davlat” tamoyili asosida Din ishlari bo’yicha qo’mita bilan O‘zbekiston mahallalari uyushmasi, Ichki ishlar vazirligi, Yoshlar ishlari agentligi hamda Oila va xotin-qizlar qo’mitasining yangi hamkorlik tizimi yo’liga qo’yilishi belgilangani ayni muddaodir. Diniy sohadagi davlat siyosatining maqsadi, asosiy vazifa va prinsiplarini qat’iy amalga oshirishda davlat va jamoat tashkilotlarining o’zaro hamkorligini yo’liga qo’yish, fuqarolarning vijdon erkinligiga ko’lgan quyiqlikni ta’minlash, jamiyatda turli diniy konfessiyalar vakillarining o’zaro ahil-inoq va hamjihat hayot kechirishini qo’llab-quvvatlash ustuvor vazifalar sirasiga kiritildi.

Aholining dini, e’tiqodi, milliy mansubligi, ijtimoiy kelib chiqishidan qat’i nazar, huquq va qonuniy manfaatlarini to’liq ro’yobga chiqara olishini ta’minlash, dinga munosabatidan kelib chiqib ustunlik berish, kamsitish va vijdon erkinligi kafolatlari buzilishining boshqa har qanday ko’rinishlarining oldini olish yangi hamkorlik tizimining asosiy vazifalari sifatida qayd etildi.

Farmonda O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasining O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi sifatida qayta nomlanishi, akademiya huquqlari aniq belgilanishi va shu kabi sohaga oid barcha islohotlar hammani birdек quvontirdi. Chunki akademiya islomshunoslik va dinshunoslik sohalarida mutaxassislar hamda o’quv dasturi, qo’llanma va darsliklarni tayyorlashga ixtisoslashgan tayanch davlat oliy ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasasi etib belgilandi.

Shu bilan birga, akademiyaning asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilanoqda:

— islomshunoslik, dinshunoslik, din psixologiyasi, islom iqtisodiyoti, manbashunoslik, xalqaro munosabatlari va ehtiyoj mavjud bo’lgan boshqa sohalar bo’yicha kadrlar tayyorlash;

— ta’lim jarayoniga ilg’or pedagogik texnologiyalarni, ilm-fan va texnikaning so’nggi yutuqlarini hamda yetakchi xorijiy oliy ta’lim tashkilotlari tajribasi asosida ishlab chiqilgan ta’lim dasturlarini joriy etish;

— vijdon erkinligi va konfessiyalararo bag’rikenglikni ta’minlash, radikalashuv, ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish hamda diniy sohadagi davlat siyosatining asoslariga oid ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirish;

— diniy-ma’rifiy yo’nalishda ilmiy, ilmiy-omlabop adabiyotlarni tayyorlash va nashr qilish, shuningdek, internet tarmog’ida ta’lim resurslarini joylashtirish va muntazam yangilab borish;

— talabalarda yuksak ma’naviy va axloqiy fazilatlarini rivojlantirish, vatanga muhabbat, uning taqdiriga daxldorlik, kasbga sadoqat hissini mustahkamlash, ta’lim-tarbiya jarayoni hamda ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish;

— mamlakatimiz va xorijda diniy sohada faoliyat olib borayotgan ilmiy-tadqiqot va ta’lim muassasalari bilan yaqindan hamkorlik qilish.

Keyingi yillarda Imom Buxoriy, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari tashkil etilgan, ular Vazirlar Mahkamasi huzurida edi. O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi huzurida faoliyat yuritayotgan Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi ham boshqa tadqiqot markazlari singari Vazirlar Mahkamasi huzuriga o’tkazildi. Bu ham markazda amalga oshirib kelinayotgan keng ko’lamdagi ilmiy ishlarining yanada yuqori saviyada yaratilishida muhim ahamiyat kasb etadi.

**Ilhomjon BEKMIRZAYEV,**  
**O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi professori, tarix fanlari doktori**

## Nuqtayi nazar

Xalqimizda hammasi niyatga yarasha bo’ladi degan gap bor. Aksariyatimiz turmush yoki ish bilan bog’liq jarayonlarda ushbu hikmatning mag’zini chaqqanmiz, albatta. Ya’ni shu kungacha erishgan barcha maqsadingiz va amalga oshmay qolgan rejalarangizni alohida tomonlarga ajratib tahlil qilsangiz, yutuqlaringiz asosida qat’iy ishonch va shunga yarasha harakat bo’lganini ko’rasiz. Aksincha, erisha olmaganlaringizga ikkilanish, ishonchsizlik sabab ekanini anglaysiz. Bu o’rinda niyatga yarashalik mohiyati shundaki, biror ish yoki maqsadga erishish uchun qat’iy bel bog’lab kirishsangiz, albatta, uddasidan chiqasiz.

## ISHONING, DABDABASIZ BAXTINGIZ KAM BO’LIB QOLMAYDI

Bu hikmat ko’plab tadqiqotlarda ham o’z tasdiq’ini topgan. Masalan, biror inson ayni chog’da tanasiga cho’g’ bosilishiga ishonchi komil bo’lsa-yu, unga ko’rsatmagan holda cho’g’ o’rniga muz bosilsa ham kuylash hissini tuyishi mumkin. Axir muz o’z nomi bilan sovuqlik bo’lsa, qanday qilib kuylashishi mumkin, unda bunday xususiyat yo’q-ku, deyishga shoshilmang. Inson psixologiyasidagi ishonch shu qadar katta ta’sir kuchiga ega, reallikdan yiroq biror narsaning aksi bo’lishiga qattiq ishonangiz, shu hodisa yuz beradi.

Qanday qilib deysizmi? Xuddi yaqinda bo’lib o’tgan o’smirlar o’rtasidagi Osiyo kubogi finalida Saudiya Arabistoni va O’zbekiston U-17 terma jamoasi o’rtasida kechgan bahsdagi kabi. Mantiqan olib qaralganda, o’yinning ikkinchi bo’limida jamoamizning g’olib bo’lish imkoniyati deyarli nolga teng edi. Chunki birinchidan, raqib jamoa bizdan 2 kishi ko’p edi. Ikkinchidan, raqib mezbbon jamoa va finalga qadar yetib kelganidan kuchsiz emasligini anglash qiyin emas. Qolaversa, o’z maydonidagi har qanday o’yin mezbbon futbolchilarga ustunlik beradi.

Shunga qaramay, jamoamiz g’olib bo’ldi. Raqibimizning chempion bo’lishiga doir

E’tiborli jihati, mamlakatimizda bu illatga qarshi keskin kurashilmoqda. Korruptsiyaga qarshi kurashish milliy kengashining shu yil 5-martdagi yig’ilishida bu borada ustuvor vazifalar belgilab berilgan bo’lsa, 21-aprel kuni Prezidentimiz ayni yil yig’ilishdagi vazifalar ijrosini ta’minlash, shuningdek, korruptsiyaga qarshi kurashish bo’yicha yangi tizimni joriy etib, ushbu masalaga jamoatchilik, parlament va fuqarolik jamiyati institutlarini keng safarbar etish maqsadida ikkita muhim hujjatni imzoladi. Ulardan biri “Korruptsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish bo’yicha belgilangan ustuvor vazifalar ijrosini samarali tashkil etishga doir chora-tadbirlar to’g’risida”gi farmon bo’lsa, ikkinchisi “Davlat organlari va tashkilotlarining korruptsiyaga qarshi ichki nazorat bo’limlari mustaqilligini ta’minlash hamda faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi qarordir.

Psixologiya sohasidagi 10 yildan ortiq faoliyatim mobaynida turli-tuman xarakter, dunyoqarashga ega odamlar bilan ishlashimga to’g’ri kelgan. Ayni paytda ham “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazi psixologi sifatida yurtdoshlarimiz bilan doimiy muloqotdaman. Demoqchi bo’lganim, mazkur farmon va

**“Birgina to’ylar, oilaviy tantanalar, ma’raka va marosimlarni olaylik. Psixolog sifatida aytishim mumkinki, to’y va marosimlarimizda kimo’zarga, dabdaba, ko’z-ko’z uchun qilinayotgan xarajatlarimiz ko’pchiligimizni qarz botqog’iga botiryapti. Boshqacha aytganda, korruptsiyani keltirib chiqarishi mumkin bo’lgan vaziyat yaratyapti. Vaholanki, ushbu tadbirlarga sarflayotgan xarajatimizning asosiy qismi ortiqcha va aslida, umuman zaruratsiz.**

## Dolzarb mavzu

# GLOBAL TEBRANISHLAR DAVRIDA MILLIY STRATEGIK YONDASHUV

### Boshlanishi 1-betda

Ba’zi yirik davlatlar xalqaro savdo qoidalarini o’zgartirish, bozorlarga bosim o’tkazish orqali global iqtisodiy tartibni o’z manfaatini yo’lida bo’ysundirishga urinmoqda. Ayniqsa, O‘zbekiston eksport qilayotgan kalava ip, tayyor mato, maishiy texnika va oziq-ovqat mahsulotlari kirib borayotgan bozorlarga katta davlatlar o’z mahsulotlari bilan tajovuzkorona kirib kelmoqda. Bu esa bizni yanada raqobatbardosh bo’lishga undaydi.

Bunday vaziyatda “bizga ta’sir qilmaydi” deb o’tirish — eng katta xato. Dunyo bozorida 3,5 trillion dollarlik qisqarish, inflyatsiya 8 foizga ko’tarilishi, moliya bozoridagi trillion dollarlik yo’qotishlar — bular bevosita bizga ham ta’sir qilmoqda va qilaveradi.

Prezidentimizning so’zlarida bir muhim haqiqat bor: endi faqat o’zimizga tayanamiz. Importga qaramlikni kamaytirish, ichki resurslardan imkon qadar foydalanish, ishlab chiqaruvchini qo’llash, eskirgan standartlarni yo’q qilish — bularning barchasi vaqt talabi.



Chunki tashqi xavflar, ichki byurokratiya va korruptsiya katta tahdidga aylanmoqda.

Sut, go’sht, bolalar oziq-ovqati, yaxna ichimliklar, hatto oddiy moped — bularni ishlab chiqarish va foydalanish yo’lida ortiqcha talablar, keraksiz sertifikatlar to’siq bo’lmoqda. Shuningdek, investorlar

va eksportchilar xorijiy bozorlarga chiqa olmayotganining asosiy sababi xalqaro talabga javob bermaydigan laboratoriyalar, sertifikat tizimining nomutanosibligidir.

Davlatimiz rahbari ayrim mas’ullarning masala jiddiyligini hali ham anglab yetmayotgani, rejasiz, mas’uliyatsiz hamda

sust harakat qilayotganini keskin tanqid qildi. Endi har bir rahbar ishlab chiqarish va eksport bilan shaxsan shug’ullanishi shartligini qayd etib o’tadi. Xususan, tadbirkorni tinglash, faoliyatiga yo’l ochish bugungi rahbarlikning eng muhim mezoniga aylanishi kerakligini aytdi.

Dunyo o’zgarayotgan bir vaqtda biz ham o’zgarishga majburbmiz. Geosiyosiy notinchlik, global bosimlar biz uchun signal. Bu tahdid emas — imkoniyat! Hozir O‘zbekiston o’zining “kompakt iqtisodiyoti”ni muvonzatli, raqobatbardosh va mustahkam tayanchlarga qurishining ayni vaqti. Har bir rahbar, tadbirkor o’z ishiga mas’uliyat bilan yondashishi, geosiyosiy shamollarga qarshi barqaror tura olishi zarur.

Mazkur yig’ilish va unda belgilab berilgan vazifalar Prezidentimizning global o’zgarishlarga moslashgan holda, mamlakatimizning iqtisodiy barqarorligini ta’minlash va milliy manfaatlarimizni himoya qilish borasidagi qat’iy va uzoqni ko’zlagan siyosatini yana bir bor tasdiqladi. Zero, davlatimiz rahbarining bunday strategik yondashuvi O‘zbekistonning kelgusi taraqqiyyoti uchun mustahkam poydevor yaratmoqda.

Shunday ekan, bu islohotlar — kelajak avlod oldidagi mas’uliyat, vijdon ishi. Bugun qilinadigan har bir islohot, har bir o’zgarish ertangi kunimiz uchun tamol toshidir.

**Bahodirjon MAMATXONOV,**  
**Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati**

# TOSHKENT – XORAZM: 10 TA ZAMONAVIY YO’LOVCHI VAGONI FOYDALANISHGA TOPSHIRILDI



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ  
TILIDA HAM O’QISH UCHUN  
QR-KODNI SKANER QILING!



### Boshlanishi 1-betda

Yuqoridagi hayotiy misoldan ham ko’rinadiki, hududlarning turizm salohiyatini oshirishda yo’l infratuzilmasi rivojlangani, yo’lovchi transportlarning zamonaviy va qulayligi muhim o’rin tutadi. Shu bois, davlatimiz rahbari hududlarning turizm salohiyatini oshirish, xorijiy investitsiya loyihalarini jadallashtirish masalalari muhokamasi bo’yicha joriy yil 9-aprel kuni o’tkazilgan videoselektor yig’ilishida yurtimizning qadim tarixi, o’ziga xos madaniyati va go’zal tabiatini namoyish etadigan manzillarining yo’l infratuzilmasini rivojlantirish bo’yicha alohida topshiriq berdi. Bu yo’nalishda xalqaro moliya institutlari bilan yangicha tizimda ishlash katta natija berayotganini qayd etdi.

Keyingi yillarda shaharlararo samolyot, poyezd va avtobuslar qatnovi ko’payib, yanada qulaylashdi. Yil sayin yangi zamonaviy poyezd, vagonlar xarid qilinib, mahalliy aholi, xorijlik sayyohlarning og’iri yengil, uzog’i yaqinlashtirilmoqda.

— 2025-2026-yillarda yangicha dizayn va uslubdagi, shinam, barcha qulayliklarga ega bo’lgan 70 ta zamonaviy yo’lovchi vagon xaridi uchun Tiklanish va taraqqiyyot jamg’armasi huzurida Sanoatni rivojlantirish jamg’armasi tomonidan imtiyozli kredit liniyalari asosida mablag’ ajratilgan, — deydi “O‘zbekiston temir yo’llari” AJ Axborot-tahliliy media markazi mutaxassisi Rustam Haydarov. — Xususan, ushbu vagonlarning birinchi 10 tasini foydalanishga topshirdik. Shulardan 4 tasi plaskart (har biri 54 o’rinli), 4 tasi kupe (har biri 36 o’rinli) hamda 2 ta CB (har biri 18 o’rinli) turdagi vagonlardir.



Ular bir vaqtning o’zida Xivaga boruvchi 396 yo’lovchiga xizmat qilmoqda. Ikki yil ichida 70 ta vagon yo’lovchilar xizmatiga topshirilsa, 1 milliondan ortiq yo’lovchini zamonaviy, shinam va xavfsiz vagonlarda manziliga yetkazib qo’ya olamiz.

Olis yo’l otni sinar deganlaridek, zamonaviy vagonlar xalqimiz uzog’ini yaqin qiladi, yo’l azobini yengillashtiradi. Yurtimiz chiroyni tomosha qilib, qulay

vagonlarda hordiq chiqarib, manziliga qanday borib qolganini sezmay ham qoladi. Bu imkoniyatlar hududning turizm salohiyati yanada o’rtishiga xizmat qilish bilan birga, yurtdoshlarimizning O‘zbekiston bo’ylab sayohat qilishiga yana bir rag’bat bo’lishi shubhasiz.

**Sanjar ESHMURODOV,**  
**“Yangi O‘zbekiston” muxbiri**



## KORRUPSIYA – jamiyat tanasidagi saraton

## “NAFSING SENG TOBE BO‘LSA, INSONSEN...”

## YOXUD KORRUPSIYA – ISLOHOTLAR KUSHANDASI

Abdullil MAVRULOV,  
tarix fanlari doktori,  
professor

## Boshlanishi 1-betda

“Korrupsiya faqatgina jinoyat va huquqbuzarlik emas, balki axloqiy buzqlik hamdir. Shuning uchun korrupsiyaga qarshi kurashish har bir sof vijdonli insonning demokratik jamiyat va davlatning muqaddas burchi hisoblanadi. Jamiyatda korrupsiyaga nisbatan toqatsizlik, Konstitutsiya va qonunlarni chinakam ma’noda hurmat qilish madaniyatini shakllantirish dolzarb ahamiyatga ega”, deb yozadi davlatimiz rahbari “Hozirgi zamon va Yangi O‘zbekiston” kitobida.

Bugungi kunda davlat barcha yo‘l va vositalar bilan bo‘lsa-da, odamlarning davlatdan roziligiga erishish borasida keng ko‘lamli ishlarni olib bormoqda. Mamlakatda demokratik, inson huquq va erkinliklari bo‘yicha xalqaro me‘yor va tamoyillarga qat’iy amal qilgan holda xalqimiz uchun erkin, o‘bod va farovon hayot kechirishni ta‘minlash yo‘lida jiddiy tadbirlar amalga oshirilmoqda. Barpo etayotgan yangi O‘zbekiston mohiyatini “Davlat — inson uchun”, “Avval inson, keyin jamiyat va davlat”, “Xalq davlat organlariga emas, davlat organlari xalqqa xizmat qilishi zarur”, “Odamlar tashvishi bilan yashash” kabi muhim, avvallari har birimiz orzu qilgan tamoyil va g‘oyalarni tashkil etmoqda.

Biroq barpo etmoqchi bo‘lgan va bugun bu borada misli ko‘rilmagan yutuqlarga erishganimizga qaramay, hali korrupsion holatlar mavjud. Jamiyatda korrupsiya holatlari paydo bo‘lishiga juda ko‘p omillar sababchi esa-da, xalqona tilda aytganda, bu jarayonda “nafs balosi” eng yetakchi, ustuvor o‘ringa ega bo‘lmoqda.

Ijtimoiy tamoyillarda berilayotgan xabarlariga ko‘ra, deyarlari har kuni ayrim katta va kichik rahbarlarning turli darajada korrupsiya holatlariga aralashib qolishi jamiyatda e’tirozlar yuzaga kelishiga sabab bo‘lmoqda. Bu yuqumli kasallikning davosi yo‘qdek. Qolaversa, ba’zi korrupsionerlar egallab turgan lavozimining o‘zi juda katta mansab, martaba, o‘sha yuksak mansablarni suiste‘mol qilish Prezident va xalq ishonchiniing yo‘qolishidan darak ekanini bilmaydimi?

## Jismoniy yoki hissiy talab ifodasi

Fikrimizning uzviy davomi bevosita “nafs” so‘zining lug‘aviy ma‘nosiga borib taqaladi. Bu so‘zni asosan, insonlarga nisbatan qo‘llaymiz. Ammo hayvonga, o‘simlikka nisbatan ishlatish holdari ham uchraydi. “Nafs” so‘zi, ustoz Aliybeg Rustamiy bayoniga ko‘ra, kishining jismoniy yoki hissiy talablari, hojatlarni qondirishga bo‘lgan intilishidir. Bu sa‘y-harakat oqibatida axloq doirasini bosib chetga chiqqan kishini “badnafs” (nafsni yomon) yoki “nafsni tiyolmagan odam”, deb ataydilar.

Bundaylarga yaqinlashmaslik chorasini ko‘rgan ma‘qul. Chunki badnafsning yaxshilik kutish nodonlikning o‘zginasidir. Buning muqobilidagilar esa, aksincha, “neknafs” yoki “nafsni jilovlagan kishi” deya sharaflandilar. Ular diniy ta’limotda “nafsiga zulm qila oluvchi banda” deyiladi. Hayvonda aql bo‘lmagan sababli uning nafsini g‘ariza, ya’ni instinkt idora qiladi. Shu bois, hayvon o‘z nafsini turli yo‘llar, hatoki tajovuzkorlik bilan ham qondiradi. “Nafsni tiya olish” tushunchasi shu o‘rinda inson bilan hayvonni bir-biridan farqlash imkonini beradi.

Kim o‘z nafsiga hukmronlik qila olmasa, “Bu odamda hayvoniy illatlar ustun”, deya ta’rif berish mumkin. I.Krillov masali obrazi — bo‘ri nafsning qurboniga aylangan qo‘zichoqni bilamiz. O‘lga aylangan jonivorga rahminiz keladi, ammo uni yirtqich chagallidan qutqarishga ojizmiz.

## Nafsni jilovlashning uch sharti

Nafsni tiyish mumkinmi, degan azaliy savol har qaysi davrda ko‘ndalag turgan. Ammo bu o‘ta murakkab, juda qiyin jarayon. Chunki bu illat odamni o‘z domiga xuddi ohanrabodek tortib turadi. Bunga qarshi kurashish hatkoti mumkin emasdek tuyulishi mumkin. To‘g‘rirog‘i, nafs balosiga qarshilik ko‘rsatish, unni ildizi bilan qo‘porib tashlash uchun insondan katta kuch, bilim, mardlik talab etiladi. Boshqacha aytganda, o‘z nafsini yenggan kishi aslida o‘zini o‘zi yenggan jasoratli insondir.

Nafs va inson tabiati masalalarini muayyan darajada o‘rganib, un bo‘yicha qator asarlarni o‘rgangan tadqiqotchi sifatida qayd etib o‘lmoqchimakim, bu salbiy hodisani jamiyat hayoti, kishilar ongi va ruhiyatidan chiqarib tashlashda ijtimoiy foydali mehnat, el manfaatini

o‘zinikidan ustun qo‘yish, ilmparvarlik katta rol o‘ynaydi.

Buni birma-bir asoslaymiz. Qo‘lida biror kasb-hunari bo‘lgan kishi o‘z mehnati orqasidan kelgan daromadga sabr-qanoat qiladi, buning o‘zgalarga qay darajada manfaati tegishini ham biladi. Demak, u o‘z manfaati bilan xalqi, davlat manfaatini uzviy bog‘liq holda tasavvur qiladi. Aksariyat ilmparvar kishilar nafs domiga ilinishing oxiri fojia bilan tugashini ko‘plab adabiyotlarda o‘qigani bois, uning ketidan quvmaydi, boriga shukr, yo‘g‘iga qanoat qiladi.

Darhaqiqat, insonning eng katta dushmani bo‘lgan nafs ana shu omillar natijasida bartaraf etilishini hech bir kishi inkor etolmaydi. Mazkur omillar bevosita mamlakatimizdagi keng qamrovli islohotlar bilan bog‘lanib ketishini yana bir karra eslatib o‘lmoqchimiz. Mehnati orqasidan ulug‘lanayotgan zamondoshlarimiz juda ko‘p, ular katta islohotlar jarayonida o‘z o‘rnini aniq belgilab olgan. O‘z moddiy va ma’naviy ehtiyojlarini to‘la qondirish uchun yaratilgan namunali imkoniyat va sharoitlardan unumli foydalanayotgan millionlab yurtdoshlarimizning halol mehnati natijasida iqtisodiy barqarorlikka erishayotganimizni fakt va raqamlar, tahliliy ma’lumotlar yaqqol tasdiqlab turibdi. Jamiyatimizni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari uzoq kelajakka mo‘ljallangani unchun ham yurtimizda barqarorlik, osoyishtalik hukm surmoqda.

## Mutafakkirlar mulohazasiga ko‘ra...

Nafs balosi bugun yoki kecha paydo bo‘lgan emas. U insoniyat paydo bo‘lgan davrdan beri mavjud. Mutafakkirlarimiz nafsga dushmanlarning dushmani, eng katta jinoyatlarga boshlovchi illat sifatida qaragan. Shayx Sa’diy bunday deydi: “Nafs tingini nopoqlikdan qaytaruvchilar, yaramas ishlardan saqlanuvchilar mardlik va bahodirlikda Narimon va Rustam Zoldan yuqori turadilar. Chunki nafs bilan kurashish, u bilan jang qilish boshqa dushmanlar, zamonaviy qurol-yarog‘lar bilan jang qilishdan qiyinroqdir. Sen ilm-u adabni qo‘lga ol, adab gurzisi bilan dushmanning nafs boshiga ur, insonning nafsidan katta dushmani yo‘qdir. Agar sen aql va fikr egasi bo‘lsang, hadeb nafsning orzusiga yo‘l beravermi. Agar nafsningning hamma orzusini bajo etsang, uni semirtirsang, u seni bir kun halokat chuquriga tashlaydi”.

Nafs inson erki bilan bog‘liq. Uni jilovlay oladigan har qanday inson yetuk shaxs hisoblanib, o‘z ehtiyojidan ortiqcha narsa — moddiy ne‘mat, boyliklar uni mullaqo qiziqirtmaydi. Boriga shukr qilgan, o‘z nafsini jilovlay olgan inson, eng avvalo, o‘z oldida, qolaversa, butun jamiyat oldida mag‘rur va halol. Alisher Navoiy bunday deydi: “Nafsing senga tobe bo‘lsa — insonsen, aksincha, yuz ming kishi senga tobe bo‘lsayu, sen nafsingga tobe bo‘lsang — inson emasan”.

Al-Faqlhi Abu Lays Samaraqandiy oqil kishi dushmanidan do‘stini ajrata bilishi, dushmaniga ergashmasligi lozimligini ta’kidlab, johillikning to‘rt alomatini sanaydi: bekorga g‘azablanish, nafsning botilga ergashishi, molni o‘rinsiz

shunga intilamiz. Buning yomon joyi yo‘q. Ammo bunday qulayliklarga erishish yo‘lidagi nopoklik va nohalollikdan O‘zi asrasin. Bilib-bilmay adolatsizlikka yo‘l qo‘yadigan, jamiyat qonunlaridan chetga chiqadigan, o‘z nafsini qondirish yo‘lida hech narsadan, har qanday yomonlikdan qaytmaydigan kishilarning hayot tarziga nazar salsak, ularning keyingi turmushi, hayotida qandaydir ma’naviy fojialarni ko‘ramiz.

## Iqtisodiy vasatiylik

Mol-mulki bo‘lgan kishi farovon va to‘q yashaydi, u birovg muhtoj emas. Moddiylik me‘yorida bo‘lgani yaxshi, bu islomda iqtisodiy vasatiylik (mo‘tadillik) deyiladi. Islomda molu dunyoning ortidan tushib, unga qol bo‘lib qolishga aslo yo‘l qo‘yilmaydi. Shuningdek, mol-u dunyoni tamoman inkor etishga targ‘ib ham qilinmaydi. Alloh taolo har bir insonni mol-u mulkka muhabbatli qilib yaratgan. Islomda haloldan topilgan molu dunyo katta ne‘mat sanaladi. Kishilar halol kasb orqasidan hayot kechirishga da‘vat etilgan. Lekin mol-u mulkka ruju qo‘yish qoralangan. Shu tarzda mol-u dunyo masalasida vasatiy — mo‘tadil, o‘rta, yaxshi va afzal holat ixtiyori qilindi.

Mol-u mulk masalasida vasatiylik — mo‘tadillik, afsuski, ayrim holdarda yurtdoshlarimiz tomonidan buzilayotganini ko‘ramiz. Tasavvur qilaylik, bir oiladagi ota-ona, ikki yoki uch farzand uchun necha xonali yu kerak? Ayrim xonadonlarda mezmun aslida, bilmasdan yoki maqtanish uchunmi, tasarrufida bo‘lgan ba’zi xonalarga yillab kirmaganini gapiradi. Moddiy boyliklarni ko‘z-ko‘z qilish,

chambarchas bog‘liq. Ayniqsa, Sharq olamida farosatning o‘mi katta.

Ushbu noyob hodisalar, ya’ni aql bilan farosat insonning butun faoliyatini muvofiqlashtirib turuvchi omil bo‘lsa-da, kishilar nafsini jilovlashda ularning o‘rni mullaqo bo‘lakcha. “Qo‘li kalta” qo‘shnisi bor badavlat inson aql va farosatga suyanib ish yuritadigan bo‘lsa, o‘z uyiga keragidan ortiq zeb bermaydi, qo‘shnisining imkoniyatini hisobga oladi. Ya’ni uyaltirib, mulzam qilishdan o‘zini tiyadi. Ya’ni oqil odam aql va farosatga suyanib ish ko‘radi. U o‘z nafsini jilovlay oladi, unga qul emas.

Aslida, har bir kun odob va nafs o‘rtasidagi kurash bilan o‘tadi. Nafsni mo‘tadillashtirish o‘z qo‘limizda. Boshqacha aytganda, odob bizni har kuni, har doim qabihlikka, jirkanch amallarga boshlovchi nafs balosidan qutqaruvchi himoya vositasi. Odob bizni axloqiy me‘yorlarga undab, milliy xarakterimizni shakllantiradigan hodisalar majmuidir. U barcha millat va elatlarga xos ijtimoiy-ma’naviy hodisa hisoblanasa-da, o‘zbek xalqi hayotidagi ahamiyati beqiyos. U bizni ko‘pincha nafs balosidan qutqaradi. “Och qornim, tinch qulog‘im” maqolining mazmuni ham nafs balosiga qarshi kurashishning ahamiyati katta ekanidan dalolatdir.

Maqsadga yetishmoq uchun inson tinimsiz o‘zi bilan o‘zi kurashishi, o‘zini qiynashi lozim. Fariddiddin Attorning “Tazkirat ul-avliyo” asarida bunday yoziladi: “Banda bilan Alloh o‘rtasida to‘rt dengiz bor, ulardan kechib o‘tmaguncha Allohga yetishib bo‘lmas. Biri — dunyo, uning kemasi zuhdidir; ikkinchisi — xalq, uning kemasi uzlatdir; uchinchisi — iblis, uning kemasi dushmanligini bilib, undan saqlanmoqdir; to‘rtinchisi nafsdirki, uning kemasi tilagini bermaslikdirdi. Nafs yomonlikni buyuruvchi, havoga uchuvchidir. Er uldurki, nafsni o‘ldirgaysi”. Mutafakkir yana bir joyda yozadi: “Shaytonning bir soat ichida halok qilganini yuzta och arslon bir suruv qo‘y ichida qila olmas. Nafsning bir soat ichida odamga quladigan vayronlik ishini esa yuzta shayton qila olmas”.

Nazarimizda, nafs balosiga bundan ortiq ta’rif berish qiyin. Ha, haqiqatan yuzta shayton bitta nafsning qilgan ishini uddalay olmaydi. Nafs balosidan qutulish uchun inson doimo o‘zini poklab turishi kerak. Yuqorida ta’kidlaganimizdek, nafsni poklantiruvchi omillar juda ko‘p. Ammo nazarinmiza, “sabr” degan so‘z borki, uning ahamiyati barchasidan ustun turadi. Sabr aslida insonning bardoshi, irodasini bildiruvchi ma’noni anglatadi. Ayni paytda sabr inson ma’naviyatining muhim bo‘lagi hisoblanadi.

Sabr insonga birdaniga beriladigan ne‘mat emas. U uzoq yillar davomida shakllanadigan, ajdoddardan avlodlarga ma’naviy meros sifatida o‘tadigan qadriyat. Shu ma’noda, “Sabr qilsang, g‘o‘radan holva bitar”, “Sabr dori kabi achchiq, oqibati shirin”, “Sabr tagi — sariq oltin”, “Sabrliga — osh, sabrsizga — tosh” kabi maqollarimizning nafsni jilovlashdagi o‘rni beqiyos.

## Gedonizmning ikki turi

Butun dunyoda taraqqiyot, tezlashish jarayoni kuzatilmoqda. Globallashuv ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy, mafkuraviy hayotning barcha jabhalariga kirib keldi. Hayotning tezlashuvi odamlar xarakteri, istak-niyatlariga ham kuchli ta’sir etmoqda. Ayrim yoshlarda tezroq boyib ketish, katta imkoniyatlarga birdan ega bo‘lish, o‘z ehtiyojlarini bir zarb bilan qondirish kabi “sifat”lar paydo bo‘lmoqda. Ilmii tilda bu holat **gedonizm** deb baholalanadi.

Buso‘z yunonchada “lazzatlanish” ma’nosini beradi. Lazzatlanish esa ikki xil ma’noga egadir. Birinchisi ma’naviy lazzatlanish bo‘lib,

har birimiz o‘zimiz yashayotgan, mehnat qilayotgan mamlakat va jamiyatdan, qarindosh-urug‘lar, yaqinlarimiz, tevarak-atrofimizda ro‘y berayotgan o‘zgarishlar, islohotlardan, o‘zimizning bugungi holatimiz, mavqe-martabamiz, o‘qigan kitoblarimiz tomosha qilgan san’at asarlaridan lazzatlanishimiz nazarda tutiladi. Bu narsa buyuk mutafakkir-allomalarimiz ma’naviy-ilmii merosida ham juda ko‘p uchraydi. Masalan, Abu Rayhon Beruniy ibni olishni o‘z hayotining lazzati tarzda ta’riflaydi.

Moddiy lazzatlanish esa ko‘proq mavjud boyliklarga oshno ekanimizda o‘z ifodasini topadi. Kecha yoki bugun iste‘mol qilgan taomdan, kiygan kiyimi, uning nafsini qondirgan moddiyotdan lazzatlanish insonda yuqorida qayd etganimiz — sabr hissini uzozlashtiradi. Moddiy jihatdan lazzatlanish har birimizda ma’naviy qadriyatlarga bo‘lgan ehtiyojni susaytiradi, oxir-oqibatda kishilar “mol qul”ga aylanganini bilmay qoladi.

Tarbiyada ma’naviy lazzatlanishga alohida e’tibor berish kerak. Ma’naviy lazzatlanish har birimizdagi “sabr” deb nomlangan muhim qadriyatning ta’siriga ham bog‘liqdir. Nafs va sabr hech qachon bir-biri bilan kelisha olmaydigan sifatlarga o‘xshaydi. Ammo ularning to‘g‘ri nisbati insonni yaxshilik, ezigulik sari yetaklay oladi. Masalan, buyuk bobomiz Alisher Navoiyning “Nafs binosini sabr asosiga qur, uning besabrligini yomonlikka bo‘y, unga sabr qilishni ishorat qil va sabrni zafar sari bashorat deb bil”, degan o‘giti ostida katta falsafiy, amaliy qarash mavjud.

Agar ushbu iqtibosga e’tibor bersak, nafsni yengish yoki uni sabr asosida bunyod etish zarur sari yo‘l deb ta’kidlanmoqda. Darhaqiqat, zafar yo‘li oddiy emas, uning manzili yaqin ham emas. Bunday mashg’ullat yo‘lda inson o‘zi bilan o‘zi tinimsiz kurashishi lozim. Bu yo‘lda nafs insonning qalбини bul’aydi, undagi insoniy sifatlarni yo‘q qiladi. Boshqacha aytganda, nafsning ketidan quvish aslida insonning o‘z ruhiy va jismoniy chegarasini buzishi bilan barobardir.

Xo‘sh, unda o‘z nafsini tiyan odam nimalarga erishadi? Bunday odam vijdon azobisiz yashaydi, u hamisha xotirjam, hech kimga muttaham yoki qaram emas. Vijdon azobisiz va ko‘ngil xotirjamligida yashash qanday lazzat!

O‘zini anglagan, yaxshilik va yomonliklarning kelib chiqish tabiatidan xabardor har qanday kishi nafs balosidan ustun turadi. Olijanob va baxtli inson nafsning nimalarga qodirligi, o‘zini qanday yomonliklar kutayotganini biladi, bu xildagi falokatlardan qutulishning yo‘lini izlaydi va topadi.

Insonning o‘z nafsini tiyishida sog‘lom ehtiyojning o‘rmi benihoya katta. Avvalo, unutmastik kerakki, ehtiyoj inson talabari asosida paydo bo‘ladigan tabiiy xususiyatdir. Insoniy ehtiyoj, boshqa mavjudotlardan farqli o‘laroq, moddiy va ma’naviy turlarga bo‘linadi. O‘z navbatida, ushbu ehtiyojlarining sog‘lom va nosog‘lom xillarini farqlash lozim. Nosog‘lom ehtiyojlarning asl manbai nafsdir. Sog‘lom ehtiyojni inson o‘z ichki “men”iga bo‘ysundiradi. Inson o‘z ko‘ngli va mayliga quloq tutsa, u nimalarni xohlamaydi, deysiz. Cheki-chegarasi yo‘q ehtiyojni jilovlashda kishi “men”i sog‘lom ehtiyoj sifatida katta rol o‘ynaydi.

## Tanaffus qilgan yutqazadi

Nafsga qarshi jangda nafas rostdab, tanaffus qilib bo‘lmaydi. Har laha va har on qon-u jonga o‘rashib olgan nafsqa qarshi hujum qilib turgan kishini saodat manzili kutadi. Aks holda, nafs o‘z egasini bo‘ysundirib, kurashda g‘olib chiqaveradi. Ko‘z, quloq, dimoq, ishtaha nafsga sidqildidan xizmat qilaveradi. Oyoq-qo‘llarimiz nafs ko‘rsatgan tomonga intilgani intilgan. Agar

nafs zo‘rluk qilsa, qalb bu a’zolari boshqara olmaydi. Holbuki, nafsni faqat aql yo‘li bilan emas, qalb kuchi bilan ham yengish yaxshi samara beradi. Shuning uchun ham “Nafs aqlimizga na bo‘ldiki, xasis nafs bizga g‘olib bo‘lubdur” deyilganda, qalb tarbiyasining zaifligi nazarda tutiladi. Agar odam o‘z nafsiga asir bo‘lib qolsa, insoniylikni qo‘ldan boy bermay iloji yo‘q.

Ba’zan moddiy imkoniyatlari yetarli kishilarni g‘am-tashvishli holda ko‘ramiz. Sabab ne, o‘ylab qolasan kishi. Uni o‘z nafsini qondirish yo‘lidagi noqonuniy ishlari bezovta etmayotganmikan? Qing‘ir ishning qiyig‘i qirg yildan keyin ham bilinadi, degan naqlga ko‘ra, imi-jimida qilgan jinoyat ishi ayrim nopok kishilarning tinchi, halovatini buzmaydi, deb ayt olmaymiz. “Nafs uzoq muddat botil, qabih narsalarga mayl etsa, bora-bora ularga ko‘nikadi, hatto bundan lazzat ham oladi. Agar sen ham bir muddat haqqa qaysang-u, keyin unga muttasil bog‘lanib qolsang, qanday qilib haqqa odatlanmaslik, undan lazzat olmaslik mumkin?!” Aslida, nafsning botil, qabih ishlariga mayl etishi fitratga ziddir, misoli ba’zi odamlar kesak yeyishga odatlangani kabi. Ammo fitratning hikmatiga, Yaratgan egasini tanib, u zotga muhabbat qo‘yish va ibodat qilishga bo‘lgan mayli bamosoli uning taomga va suvga bo‘lgan mayliga o‘xshaydi. Chunki qalb tabiati bu maylni taqozo etadi”, deydi allomalardan biri.

Yoshi katta kishi bilib-bilmay o‘z nafsining izmiga bo‘ysunadi. Bola esa aqlu hushini tanigunga qadar bilmasdan nafsqa ergashadi. Unutmastik kerakki, bolalik va yoshlik kezlari nafsiga hakim bo‘la olgan kishi hayotida juda ham ko‘p qoqilavermaydi. O‘z farzandi baxt-u saodatini o‘ylagan inson, diyonatli ota-onalar qo‘dagining yig‘laganiga, qaysarlik qilganiga bo‘ysunavermay, undagi nafsni ammora (kuchli xohish-istak) kurtaklarini yo‘qotishga harakat qiladi.

Eng yomoni, nafs balosi ham xuddi yuqumli kasallik singari kattalardan yoshlarga, ota-onalardan farzandlarga yuqadi. Farzand o‘z oilasidagi muhit, turmush tarzidagi g‘ayritabiyy o‘zgarishlar, mehnatsiz topilayotgan boyliklarni ko‘rib mulohaza qilmaydi, deysizmi? Xato o‘ylaymiz. Bugungi yoshlarning aqli hamma narsaga yetadi. Ijtimoiy tarmoqlardagi “xabarlar”, “boylik orttirishning ming xil yo‘llari”, ayniqsa, oilaviy muhitdagi “kattalar”ning boylik orttirish borasidagi muhokamalari, shubhasiz, farzandlarning yoshlikdan nafs balosiga uchrashi, korrupsiyaning “ilk saboqlari”dan dars olishiga imkon beradi.

Shuning uchun ham bu borada tanaffus qilishga haqqimiz yo‘q. Har soniya, har qadamda bu borada tushuntirish olib bormasak, o‘zimiz shaxsiy namuna bo‘la olmasak, kech qolamiz.

## Riyozat un-nafs

Imom G‘azzoliy ta’biri bilan aytganda, bola qalbi pok, nozik, sodda va har qanday naqsh va suratdan xoli gavharidir. Unga qanday naqsh solinsa, shunga ko‘ra shakllanib, eggan tomonga egiladi. Agar bola yaxshilikka o‘rganib, to‘g‘ri amallar ichida voyaga yetsa, dunyo va oxirat saodatini topadi. Albatta, bu savobga uning birinchi galdga ota-onasi, muallimi va unga ibrat ko‘rsatgan yaqinlari sherikdir. Agar ota-ona bolaning atqalarini baho keltirib, undagi nafs tarbiyasini to‘g‘ri yo‘lga qo‘ymas ekan, buning oxiri xayrli tugamaydi. Bunga uni shu ko‘yga solganlar — ota-ona, buvi-buvulari sababchi bo‘lishi mumkin.

Ilm olmoqlik beshikdan to qabrgacha faraz qilgani kabi nafs tarbiyasi ham bola dunyoga kelgan kundan boshlanishi kerak. Yaxshi-yomonni farqlash hissi bolada shakllana borgan sayin nazoratni kuchaytirmoq zarur. Avvalo, ona suti pokmi, ota topib kelgan daromad halolmi, bu birinchi galdagi masala. Agar nohalol topilgan non-tuzdan iste‘mol qilib ona bolani emizsa, uning tabiati haromga moyil bo‘lib o‘sadi. Nafsi o‘pgonlikda u bora-bora otasini yo‘lda qoldirib ketadi.

Buning oldini olish mumkin, albatta. Qachonki, aql nuri yorishib, bola ba’zi ishlarning boshqasiga zid ekanini ko‘rsa, xunuk deb topgan ishlarni qilishdan uyala boshlasa, bu nafsni jilovlash yo‘lidagi ilk qadamdir. Bu xulqning pokligi, qalbnig sofligidan darak beruvchi bashorat, aqlning kamolga yetayotganidan xushxabardir.

Nafs balosidan qutulish insonni ko‘klarga ko‘taradi, jamiyatni poklantiradi, odamlarni vijdon azobidan qutqaradi, tinchlik va xotirjamlik baxsh etadi. Bu jarayon turli kurash va ziddiyatlar negizida kechadi.

Yangi O‘zbekiston jamiyatida korrupsiya holatini yo‘qotish, odamlarda nafs tarbiyasi samaradorligini oshirish aslida mamlakat va millat taqdiriga daxldor masalaga aylanib bo‘ldi. Davlatimiz rahbarining korrupsiyaga qarshi umumxalq harakatini boshlashga da’vat etishi, shubhasiz, yangi O‘zbekiston va Uchinchi Renessans poydevorini barpo etish, jamiyatda adolat tamoyillarini qaror toptirish, aholi farovonligini ta’minlashdagi muhim qadamdir.





YANGI O'ZBEKISTON

# AL-FARG'ONIY MEROSI

## YOSHLAR TARBIYASIDA DASTURLAMAL BO'LMOQQA MUNOSIB

Qadimdan ko'hna Sharq, xususan, Markaziy Osiyo davlatlari ilm-u fan taraqqiy etgan, falsafa, tibbiyot, adabiyot, madaniyat va san'at rivojlangan mintaqalarda bo'lib kelgan. Yer yuzida nechta davlat borligi, ularning har biri qancha olamaga, dunyoga mashhur shaxslarga ega ekanini o'ylab ko'rganmisiz? To'rtta yoki beshta, nari borsa o'ntadir. Biroq yurtimizdan yetishib chiqqan allomalar sinoni hisoblashga barmoqlarimiz yetmaydi, ta'rifu tasnifini yozgan, ayrgan bilan tugamaydi.



**Bahodirjon SHERMUHAMMADOV,**  
pedagogika fanlari doktori,  
professor

o'tkazildi. Xalqaro munosabatlarimiz rivojlanib, yangi bosqichga ko'tarilayotgan bir pallada rektor sifatida Turkiya texnologiyalari, ilm-fanidagi yutuqlarni Farg'ona davlat universitetiga olib kirish, bakalavr va magistratura bosqichlarida ta'lim olayotgan yoshlar bilan ta'lim investitsiyalarini tashkil qilish, ta'lim eksportini amalga oshirish bo'yicha muzokaralar o'tkazdik. Shuningdek, tashrif davomida Turkiyaning Keyseri viloyati Eriyes universiteti rektori Foth Altun bilan uchrashib, qator foydali kelishuvlarga erishdik.

Safarimizning eng asosiy nuqtasi, barchamizning qalbmizni iftixor va g'ururga to'ldirib yuborgan voqea — bobokalonimiz Ahmad al-Farg'oniyni byusti shaxsan delegatsiyamiz ishtirokida Anqara shahridagi xiyobonga o'rnatilgani bo'ldi. O'sha lahza davlat rahbari ham o'rnatilgan kuchi hayjon, quvonch va faxr hissi jismimni yerdan osmonga ko'targudek edi go'yo. Chunki bu haykal mening bobomga, ona xalqimga qo'yildi. Bunday haykal Qohira shahrida, Nil bo'yida ham o'rnatilgan hamda O'zbekiston va Misr o'rtasidagi azaliy do'stlikning yorqin timsoliga aylanib ulgurgan. Albatta, bu kabi tashabbuslar dunyo tamadduniga ulkan hissa qo'shgan ulug' ajdodlarimizga bo'lgan yuksak ehtiromning amaliy ifodasidir.

Ko'nglim ko'tarilib, bobomiz haykaliga boqar ekanman, ruhimda milliy shuurni, Farg'oni,



Beruniy, Xorazmiy, Termiziy, Buxoriylar shahdini his qildim. Ularning qoni har bir o'zbekning tomirida hamon oqayotgani bor haqiqat ekanini yana bir bor angladim. Zero, bashariyat shu kunga qadar nimalarga erishgan bo'lsa, barchasining negizida Sharq daholarining ulkan hissassi borligi shubhasiz.

Mulohaza qilsak, islomni dunyoga yanada keng yoyilishiga sababchi bo'lganlar ham bizing bobolarimiz, yerning holatini aniqlagan, o'lchamini bilgan, yulduzlar ilimga yo'l ochgan, hatto bormay turib, yangi qit'ani kashf etganlar ham aslida ulug' ajdodlarimizdir. Matematika ilmda tengsiz Xorazmiy nomidan algoritim atamasi kelib chiqib, "Kitobul mustasar fi hisob ul-jabr val muqobala" asaridagi jabr so'zi algebra so'ziga asos bo'lgani, ming dariga shifo topgan, tengi yo'q hakim Ibn Sino Avisenna nomi bilan atalib, dunyoda tibbiyotga poydevor qo'ygani ham ayni haqiqat.



66 Ko'nglim ko'tarilib, bobomiz haykaliga boqar ekanman, ruhimda milliy shuurni, Farg'oni, Beruniy, Xorazmiy, Termiziy, Buxoriylar shahdini his qildim. Ularning qoni har bir o'zbekning tomirida hamon oqayotgani bor haqiqat ekanini yana bir bor angladim. Zero, bashariyat shu kunga qadar nimalarga erishgan bo'lsa, barchasining negizida Sharq daholarining ulkan hissassi borligi shubhasiz.

Butun xalqimiz bir bo'lib shunday ajdodlarimizning, dunyo olimlari hayrat bilan asarlarini qayta-qayta mutolaa qilgan vatandoshlarimizning kashfiyotlari, ilmiy merosini atroflicha o'rganishimiz, tabiiy e'tishim va o'zimizga foydali xulosalar chiqarishimiz dardkor. Chunki o'z ildizini yaxshi bilgan, qadriyatlarini davom ettiradigan, allomalarni ardoqlay olgan xalq bugun ham, kelajakda ham o'zligini saqlab qola olishi shubhasiz. Shu o'rinda farzandlarimiz ulug' allomalar, sohibqironlar, olimu fozillar avlodlari ekanini anglab yashashi sizga bog'liq ekanini ta'kidlashni istardim.

UNESCO qaroriga muvofiq 1998-yilda Ahmad al-Farg'oni tavalludining 1200 yilligi xalqaro miqyosda keng nishonlanib, o'sha yilning 24-oktabr kuni Farg'ona shahrida Ahmad al-Farg'oni yodgorligi ochilgan edi. Quva shahridagi Shahriston xarobalari yonida allomaning haykali o'rnatilgan, ramziy qabri bunyod etilgan. Bu ham buyuk ajdodimizning jahon sivilizatsiyasi rivojiga qo'shgan ulkan hissasiga o'ziga xos e'tirofdir.

Aholisining 60 foizini yoshlar tashkil etayotgan mamlakatimizda yoshlar ta'lim-tarbiyasiga berilayotgan yuksak e'tibor, iqtidori yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga qaratilgan islohotlar har jahbada, ayniqsa, oliy ta'lim tizimida yaqqol namoyon bo'lmoqda. Xususan, Farg'ona davlat universitetida talaba yoshlarning bilim olishi, o'z sohalarida ilmiy izlanishlar qilishi va milliy qadriyatlar ruhida tarbiya topgan yetuk kadrlar bo'lib yetishishi uchun barcha sharoitlar muhayyo. Yoshlarni moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlashga doir chora-tadbirlar ko'lamini kundan kunga kengayib bormoqda. O'ylaymizki, mehnatlar samarasi o'laroq, kelajakda mazkur oliygoh talabalaridan dunyo tan



olgan noyob iste'dod egalari, o'z xalqiga sadoqatli, azmda qat'iy ma'rifatparvar ziyovillar, Farg'oniyni chinakam izdoshlari yetishib chiqadi.

Hozirgi globallashuv davrida turli ma'naviy tahdirlar, omamaviy madaniyat hamda keskin kurash va raqobat hukm surayotgan, manfaatlar to'qnashayotgan, bir so'z bilan aytganda, qalqib turgan dunyoda tinch va osoyishta yashayotgan xalqimiz ajdodlar merosi xazinasiga egalik qilishda, undan samarali foydalanishda davom etsa, olam uzra qaddini tiklayotgan bu ulug' millat daraxtidan hali gurkirlagan bog'lar bino bo'lishi shubhasiz.

Zero, bu daraxtning ildizlari ming yilliklarga borib taqalishi, eng tiniq, eng shifobaxsh buloqlardan suv ichishi, dunyoga buyuk olimlar, allomalar hadya qilgan jasoratli xalq ekanini har lahza yod etishi oldimizga qo'yg'an ulug' vor maqsadimiz — Uchinchi Rennassansning ham asosiy quvvat manbaidir.



# TALABALAR BO'SH VAQTINI QANDAY O'TKAZADI?

Har bir ta'lim muassasasi talabalarining bo'sh vaqtini mazmunli qilish uchun ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni muntazam o'tkazishga alohida e'tibor qaratadi. Ayniqsa, madaniy uchrashuvlar, sport musobaqalari, ijodiy to'garaklar va ilmiy konferensiyalar orqali yoshlarning bo'sh vaqtini samarali tashkil etish odat tusiga kirgan. Biroq aksariyat talabalar mazkur imkoniyatdan to'liq foydalanmayotgani ham bor gap. Bu esa yoshlarning bo'sh vaqtini qanday tashkil qilish va ularga yanada ko'p imkoniyat yaratish masalasi haqida chuqur o'ylash ehtiyojini paydo qiladi. Xo'sh, bu borada nimalar qilishimiz kerak? Qanday jihatlar e'tiborga olinishi zarur?

Avvalo, har bir ta'lim muassasasida talabalarining bo'sh vaqtini qanday o'tkazayotgani, ularga qaysi to'garaklar yoki faoliyat turlari qiziq ekani, shuningdek, qanday yangi imkoniyatlarni istashi haqida so'rovnomalarni o'tkazish ayni muddao. Ushbu so'rovnomalarni orqali talabalar orasida ilmiy, sport, ijodiy, madaniy yoki texnik yo'nalishlarga qiziqish darajasini aniqlash mumkin. Bundan tashqari, so'rovnomalarni davomida talabalarga shaxsini rivojlantirish uchun qanday mashg'ulotlar, seminarlar yoki treninglar kerakligi haqida fikr bildirish imkoniyati ham taqdim etilishi kerak.

Bugungi ahvolni hisobga olsak, talabalarining bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish uchun ko'proq innovatsion yondashuvlar va yangi dasturlar ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Misol uchun, talabalar o'rtasida jamoaviy tadbirlar, ilmiy va madaniy faoliyatga qiziqishni oshirish maqsadida interaktiv va zamonaviy usullarni qo'llash mumkin. Bunda darsdan so'ng tashkil etilayotgan to'garak va kurslarni onlayn tashkil etish lozim. Ayni tashabbus talabalar uchun qo'shimcha qulaylik yaratadi. Chunki ba'zi yoshlar shaxsiy va ijtimoiy sabablar tufayli darsdan keyin to'garak yoki kurslarga qatnashga qiynaladi. Onlayn to'garak va kurslar bu borada qulay imkoniyat taqdim etadi.

Shu kabi dasturlarni mobil ilova yoki veb-platformalar shaklida ishlab chiqish, talabalar uchun qulay va interaktiv tarzda taqdim etish lozim. Sohasiga oid xalqaro konferensiyalar, webinarlar yoki onlayn tanlovlarni ham o'tkazib borish ayni muddao. Buning natijasida talabalarda turli mamlakatlar va madaniyatlarni bilan tanishish imkoniyati paydo bo'ladi. Bu ularning dunyogarashini kengaytiradi, bilimni boyitadi.

Yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish uchun to'garaklar nafaqat chet tili yoki san'at yo'nalishida, balki zamonaviy va amaliy ko'nikmalarni o'rgatuvchi kurslarni ham qamrab olishi kerak. Misol uchun, mobilografiya kurslarida zamonaviy texnologiyalar yordamida videotasvir va fotosuratga olish, ularni tahrirlash hamda kontent yaratish asoslari o'rgatiladi.

SMM kurslarida esa ijtimoiy tarmoqlarni samarali boshqarish, kontent rejalashtirish va raqamli marketing ko'nikmalari o'qitiladi. Treyding kurslarida moliyaviy savdonlikni oshirish, investitsiya va xalqaro savdo asoslarini tushuntirish orqali daromad keltiruvchi ko'nikmalarni shakllantirish mumkin. Texnologiya va dasturlash kurslari orqali axborot texnologiyalari yo'nalishida dasturlash tillari (Python, JavaScript va boshqalar) yoki veb-dizayn asoslarini o'rgatish imkoniyati paydo bo'ladi. Grafik dizayn va animatsiya kurslari zamonaviy dizayn dasturlaridan foydalanishni o'rgatib, talabalarda kreativlikni rivojlantiradi. Bu kabi zamonaviy kurslar talabalarining bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish bilan birga kasbiy va shaxsiy rivojlanishiga ham xizmat qiladi.

Bugun talabalarining ko'pida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarga, shuningdek, turli to'garaklarga qiziqish kamdek. Buning sabablaridan biri iqtisodiy holat, ya'ni aksariyat talabalar o'qishdan bo'sh vaqtda ishlashga majbur bo'lyapti. Ular o'qish bilan birga moliyaviy masalalarini ham mustaqil hal etishga harakat qilmoqda. Bu esa ularning ma'naviy va ilmiy tadbirlarda qatnashish imkoniyatini kamaytiradi.

Hozir deyarli barcha oliy ta'lim muassasasida an'anaviy sport maydonchalari mavjud. Shunday bo'lsa-da, talabalar orasida sportning zamonaviy shakllari, ayniqsa, fitness va individual shug'ullanishga qiziqish ortib bormoqda. Biroq OTMLar hududida yetarlicha jihozlangan sport zallari va fitness markazlari yo'qligi sababli talabalar tashqaridagi



**To'xtasin ARSLONOV,**  
Respublika Ma'naviyat va ma'rifat  
markazi bosh mutaxassisi

pulli sport zallariga borishga majbur bo'lyapti. Xorijdagi universitetlar tajribasiga nazar solsak, oliy ta'lim muassasasining o'zida zamonaviy sport zallari, fitness va yoga markazlarini tashkil etilganini ko'rish mumkin.


Talabalarda o'qish mobaynida stress, xavotir kabi ruhiy holatlar bo'lishi tabiiy hol. Imtihonlar, akademik talablar va shaxsiy muammolar ularning ichki holatiga salbiy ta'sir qilishi mumkin. Shu bois, ko'plab rivojlangan davlatlarning yetakchi oliyog'harlida talabalar uchun psixologik maslahat markazlari faoliyat yuritadi. Bu markazlar nafaqat stress va depressiyani yengishda yordam beradi, balki talabalarining ma'naviy-ruhiy kamolotiga ham xizmat qiladi.

Shu o'rinda talabalarga ma'naviy va psixologik jihatdan yordam berish uchun psixologik maslahat va motivatsion treninglar o'tkazishga mo'ljallangan ma'naviy va ruhiy barqarorlik markazlari tashkil etish, stressni kamaytirish bo'yicha ma'rifiy seminarlar o'tkazish hamda ruhiy salomatlikni mustahkamlash orqali ma'naviy-ruhiy kamolotni oshirishga xizmat qiluvchi mashg'ulotlarni joriy qilish maqsadga muvofiq. Shu bilan birga talabalarga anonim maslahat xizmatlari ko'rsatish ham samara beradi. Bu kabi loyihalar ma'naviy-ma'rifiy jihatdan talabalarining ruhiy holatini barqarorlashtirish, ruhlantirish va o'quv jarayonini to'g'ri davom ettirishga yordam beradi.

Adabiyot inson tafakkurini kengaytirib, tanqidiy fikrlashni shakllantiradi hamda madaniy merosni o'rganishga turki beradi. Shu sababli jahonning nufuzli universitetlarida kitob mualliflari bilan uchrashuvlar va adabiy tadbirlarni muntazam o'tkazish odat tusiga kirgan. Masalan, Garvard va Oksford universitetlarida tanilqli yozuvchilar bilan kitobxonlik uchrashuvlari tashkil etiladi. Bu tadbirlarda talabalar muallif bilan bevosita suhbatlashish, asarni muhokama qilish va ijodiy fikr almashish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Bunday uchrashuvlarning afzalliklari ko'p. Talabalarining kitobga qiziqishini oshirish, tanqidiy fikrlash va tabiiy yondashuvini rivojlantirish hamda adabiyot va ijodkorlik sohasini yanada teran tushunishga xizmat qiladi. Shu sababli ta'lim muassasalarida muntazam adabiy muhokama klublari tashkil etish, tanqidiy yozuvchilar bilan uchrashuvlar o'tkazish hamda talabalarining ijodiy faoliyatini rag'batlantirish maqsadga muvofiq.

Ilmiy va professional rivojlanishda muvaffaqiyatli insonlar tajribasi bilan tanishish ham talabalar uchun juda foydali. Shu sababli dunyoning universitetlarida mashhur olimlar, tadbirkorlar va innovatorlar ishtirokida seminarlar o'tkaziladi. Bunday tadbirlar orqali talabalar muvaffaqiyat sirlari va kasbiy o'sish yo'llarini o'rganadi, hayotiy tajriba orttirish va qiyinchiliklarni yengish bo'yicha saboqlar oladi. Ta'lim muassasalarida yetakchi olimlar, tadbirkorlar va jamoat arboblari bilan muvaffaqiyat sirlari mavzusida seminarlar tashkil qilish, TEDx formatidagi ma'ruzalarni oliygohlarga joriy etish va yosh yetakchilarni rag'batlantirish talabalarining bo'sh vaqtini samarali tashkil qilishda juda foydali.



# QORAQALPOG'ISTONDAGI "SUYUQ DARAXT"



**Hali eshitmadim, desangiz, ajablanmaymiz. Hatto uni tasavvuringizga sig'dirolmayotganingiz ham tabiiy. Chunki suyuq daraxt, ya'ni zamonaviy ekologik qurilma hozircha Qoraqalpog'istonda sinab ko'rilyapti. Birinchi "suyuq daraxt" aqlli quyosh o'rindiqlari bilan birga yangi qiyofadagi bekatlar paydo bo'lishiga umid uyg'otmoqda.**

bilan ular tabiiy daraxt vazifasini bajarishga harakat qiladi. To'g'ri, "suyuq daraxt" tabiiy daraxt kabi uzoq umr ko'rmaydi. Shuningdek, jonli daraxtzorlar o'rmini bosa olmaydi. Biroq aholisi ko'p va hududi tor shaharlar uchun ajoyib ekologik yechim. Chunki u havoni juda tez tozalaydi. Doimiy texnik xizmat va parvarish talab qilishi barobarida 10 ta daraxt yetkazib beradigan kislorodni ishlab chiqaradi. Qisqasi, "suyuq daraxt" atrof-muhitni himoya qilishda foydalanish ko'zda tutilayotgan zamonaviy yondashuvdir.



Rivojlangan davlatlarda shunga o'xshash texnologiyadan allaqachondan beri foydalaniladi. Aksariyatimiz internet orqali Serbiyada bu innovatsion yondashuv ancha keng qo'llanishini bilamiz. Mamlakat poytaxti Belgrad shahri markazidagi "suyuq daraxt" — munisipalitet binosi qarshisiga o'rnatilgan qurilma suv, suvo'tlar va ularning yashashi uchun sharoit yaratadigan tizimdan iborat. U shahar havosini zararli gazlardan tozalab, kislorod chiqaradi. Qurilma dizayni puxta o'ylangan ibo o'zibormi tortadi. Biroq Serbiya

kabi davlatlar foydalanayotgan suvo'tlar bizning iqlimga mos kelmaydi. Shuning uchun Nukusda quyosh energiyasi yordamida ishlab chiqilgan fotobioreaktor ichidagi mikroo'tlar Orol dengizi tubidagi suvo'tlar DNKsidan olinadi. Bunday mikro suvo'tlar iflos suvni tozalab, yaroqli — ikkilamchi suvga aylantiradi. Yana bir diqqatga sazovor jihati shundaki, ular sho'r suv tarkibidagi tuzni ham yo'q qila oladi.

Loyihachilardan biri, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Nukus filiali

talabasi Maqsud Tursunboyevning aytishicha, bir hujayrali suvo'tlarni yetishtirish loyihasi asosan, xlorella suv o'simligi yordamida havodagi karbonat angidridni o'ziga yutib, kislorod chiqarish imkonini yaratadi. Nukus yoshlar texnopark a'zolari kashfiyoti — maxsus shisha idishda oddiy yashil suvdek ko'rinadigan suyuqlik ichida mikro suvo'tlar yashaydi. Bu oddiy rangli suv-ku, deydiganlar ularning tarkibida chindan ham kislorod borligini maxsus tekshiruv uskunasi yordamida aniqlashi mumkin.

Texnopark a'zolari Qoraqalpog'iston iqlim sharoitidan kelib chiqqan holda, hududda yashil zonalamni ko'paytirishga kirishgan. Texnoparkda alohida o'quv dasturi joriy etilgan bo'lib, unda yoshlarning innovatsion g'oyalarni loyiha darajasiga yetkazishga ko'mak beriladi. Maqsud ham ayni dasturni tamomlab, o'zining g'oyasini loyihaga aylantirishga muvaffaq bo'ldi. Loyiha esa Innovatsion rivojlanish agentligi va uning huzuridagi Yoshlar akademiyasi tomonidan yoshlarning innovatsion g'oyalari va startap loyihalarini qo'llab-quvvatlash maqsadida o'tkazilgan "Bo'lajak olim" tanlovida g'oliblikka munosib deb topildi.

— Bu orqali atrof-muhit ifloslanishining oldini olish hissa qo'shishni maqsad qilganmiz, — deydi Maqsud Tursunboyev. — Internetda ushbu ixtiro ko'rib, uni O'zbekiston, ayniqsa, Qoraqalpog'iston sharoitiga moslashtirish

kerakligi haqida o'yladim. Buning uchun ko'p izlandim, o'qib-o'rgandim. Biroq ilk namuna bo'lgani uchun qator xatoliklarga yo'l qo'yildi. Bu esa o'z-o'zidan xarajating ortib ketishiga olib keldi. Nasib qilsa, keyingi qurilmalarimizda mablag' sarfi ancha kam bo'ladi. Chunki endi qanday ishlanishi yaxshi bilamiz. Zero, bu loyihani yanada takomillashtirib, butun mamlakatda joriy qilishni rejalashtiryapmiz. Chunki aqlli o'rindiqlar ekologiya sofigiga hissa qo'shishdan tashqari, odamlarga o'z qurilmalarini quvvatlash imkonini ham beradi.

Aqlli quyosh o'rindiqlari quyosh energiyasi asosida 24 soat uzluksiz ishlagan boisi, mobil aloqa qurilmalarini simsiz quvvatlaydi. Ularni jamoat joylari, ko'ngilochar maskanlar va ta'lim muassasalari hududlarida joylashtirish rejalashtirilgan. Oldinda jazirama kunlar turibdi. Keyingi paytlardagi global isish, havoning ifloslanishi mavjud ekologik muammolar ko'lamini kengaytirayapti. Butun dunyo bo'lajak xatarlarning oldini olish ustida bosh qotiryapti. Ana shunday sharoitda innovatsion texnologiyalar yordamida ekologiyani muhofaza qilishga qaratilgan loyihalar yordamga keladi. Tajribadan o'tayotgan "suyuq daraxt"lar ham bu borada kutilgan samaradorlik beradi, degan umiddamiz.

**Munojat MO'MINOVA,**  
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

Sharqning buyuk shoiri Hofiz Sheroziyning dunyoga dovrug'i ketgan nodir g'azalini bilasiz, yod olgansiz, sevib takrorlaysiz. G'azal bunday bayt bilan boshlanadi:

Agar on turki sheroziy  
ba dast orad dili moro,  
Ba xoli hinduyash baxsham  
Samarqand-u Buxororo.  
Shoir Xurshid maromiga yetkazib uni  
o'zbek tiliga tarjima qilgan.  
Agar ko'nglimni shod etsa,  
o'shal Sheroz jononi,  
Qaro xoliga baxsh etgum  
Samarqandu Buxoroni.

Rus tilida bu bayt shunday jaranglagan:  
O, yesli ta shirazskaya turchanka  
Zaxochet serdsem moim oblodat,  
Ya ne poskuplyus za rodiku na uyechke  
Yey Samar kand i Buxaru otdat.

Bu go'zal baytda turki sheroziy yoki Sheroz jononi va yo shirazskaya turchanka deya kim tasvir etilgan? Bunda ne majoz borki, qariyb yetti yuz yil o'tsa ham unutilmaydi, bizni hayratga soladi. Nega Rum go'zali emas, Chin parisi emas, aynan turk jononi uchun shoir dunyoning eng go'zal ikki shahrini bag'ishladi? Bunda ne hikmat bor? Turkning boshqalardan ayricha belgisi nima?

Bu savolga javob izlab “Devonu lug'otit turk”ni varaqlaymiz:

**TURK** — Tangri yarlaqagur Nuh o'g'lining oti. Bu ot Nuh o'g'li Turk avlodlariga Tangri bergan nomdir.

Ulug' tangri aytadi: “Mening bir toifa askarim bor. Ularni Turk deb atadim. Ularni kunchiqarga o'rinalastirdim. Biror xalqdan g'azablansam, turklarni ularga qarshi yo'llayman”.

Bu narsa ularning (turklarning) boshqalarga nisbatan fazilati ekanini ko'rsatadi. Hatto Tangri ularga o'zi ot qo'ygan, ism bergan. Ularni eng baland yerlarga, xushhavo joylarga o'rnatgan va o'zining botirlaridan sanagan. Turklarda ko'rkamlik, yoqimlilik, odoblilik, so'zining ustidan chiqishlik, dadillik, kamtarlik kabi maqtashga sazovor xulqlar son-u sanoqsiz...

Ushbu iqtibos “Devon...” ning o'zbekcha tarjimasidan aynan ko'chirildi. E'tibor bering, turklarning fazilatlari sanalganda, birinchi

66

**Turk atamasining yana bir mazmuni bor. Barcha eski lug'atlarda bu xalq nomi ekani bilan bir qatorda jangarilik, jangovarlik, askarlik ma'nolari ham aytilgan. Turk yonida turktoz, turki toroj, turki yag'mo, turki falak, turki xito, turkizarb, turki xijoz, turkona ayog', turkona soz, turkigo'y singari so'zlar keladi va ularning har birida xalq tarixi, xos belgilari yashirindir.**

navbatda, ko'rkamlik aytilgan. Darhaqiqat, tarixga oid risolalarda turklarning adil qomatli, xush suvratli insonlar ekani yoziladi. Ayniqsa, she'riyatda turk so'zi go'zallik timsoliga aylangan. Hofiz baytida ham turki sheroziy Sheroz go'zali ma'nosida kelgan. Shoir Xurshid bayt mohiyatini chuqur anglab, Sheroz jononi deya asliyatga mos so'zni topa bilgan.

Turk atamasining yana bir mazmuni bor. Barcha eski lug'atlarda bu xalq nomi ekani bilan bir qatorda jangarilik, jangovarlik, askarlik ma'nolari ham aytilgan. Turk yonida turktoz, turki toroj, turki yag'mo, turki falak, turki xito, turkizarb, turki xijoz, turkona ayog', turkona soz, turkigo'y singari so'zlar keladi va ularning har birida xalq tarixi, xos belgilari yashirindir.

Siz turktozning otliq askar ekanini, turki toroj, turki yag'moning jangu jadal ma'nosini bilasiz. Turki falak — Mirrix sayyorasi (Mars) demakdir. Qadimgi yunonlar jang, qing'in tangrisini Mars deganlar va Mirrix sayyorasining qizil rangida qon belgisini ko'rib, uni ham Mars ataganlar. Sharqda turkning jangovarligi shu darajada mashhur bo'libdiki, Mirrixni ham turki falak deya atadilar. Bu xalqning ko'rkam chehrasi, yuzidagi nur tillarda doston bo'libdiki, quyoshni turki xito, ya'ni



Xitoydan, Sharqdan ko'tarilgan turk debdilar. Turkning husni, bahodirligi, shaharlar ustiga ot solib kelishi she'riy majozga aylanibdi. Shoirlar ma'shuqaning go'zalligini ham, yurakni zabt etishini ham, oshiq joniga ofatligini ham turki yag'mo so'zi bilan ifodalaydigan bo'ldilar.

Hofizning o'sha mashhur g'azalida bunday bayt bor:

Fig'on ko-on lo'lyioni sho'xi  
shirinkori shahroshub  
Chunon burdand sabr az dil-ki,  
turkon xoni yag'moro.  
Bu bayt ma'nosini tarjimon shoir soddagina qilib o'zbekchaga bunday o'giran:  
Shu aldoqchi, qiziqchi,  
ftnagar sho'xlar qo'ldan dod,  
Ko'nguldan eltdilar sabrim,  
qilib turklarcha yag'moni.

Aldoqchi, qiziqchi degan so'zlar sizga juda jo'n, mumtoz she'riyat uslubidan yiroq tuyulishi

mumkin. Balki baytdagi forsiy so'zlarning hammasi o'zbek mumtoz adabiyotida bor-ku, nega Hofiz so'zlari tarjimada aynan qoldirilmagan, dersiz. Gap shundaki, xalqimiz eski o'zbek tilini unutib qo'ygan, buyuk shoir ishora qilgan timsollarni anglashdan yiroq edi. Hozir ham shunday. Lo'lyion, shirinkor, shahroshub so'zlarini zamonaviy lug'atlardan topolmaysiz. Shu bois, shoir Xurshid baytni jo'ngina, bizga tushunarli qilib o'g'irgan.

Faqat turklar emas, boshqa bir necha xalqlar ham o'zining xos belgilari bilan timsolga aylangan. O'zbekning to'g'riligi va soddaligi, lo'lining sho'xligi va aldoqchiligi, hinduning nozu karashmasi, qorachalik belgilari tashbehlarga singib ketgan. Hofizning ushbu g'azalida hindu ham — ba xoli hinduyash baxsham, turk ham — turki yag'mon, turki sheroziy, lo'li ham — lo'lyioni sho'x — bor. Ularning har biri katta mehr bilan tilga olingan. Dunyo bilgan, tanigan xalqlar, shuhrat topgan joy nomlarining tizilib kelgani — Samarqand-u Buxoro, Ruknobodu Musallo — dilbar samimiyat, yuksak mahorat bilan omixta bo'lib, g'azalning jahonshumul dovrug'ini ta'minlagan.

**Erkin VOHIDOV,**  
**O'zbekiston xalq shoiri**



# O'ZLIKNI TOPISH YO'LI: Alpomishdan Homergacha

## Boshlanishi 1-betda

Epik ijodkor — baxshi obrazi ham ana shunday masalalardan. Zero, baxshilar millat tarixi, san'ati, madaniyatining yillar davomida asrab-avaylab, avlodlarga yetkazayotgan, milliy madaniyat, tarix va falsafaga benazir ulush qo'shayotgan ulkan ijodkorlardir. “Alpomish”, “Go'ro'g'li”, “Manas”, “Dada Qo'rquq kitobi” kabi ulkan badiiy obidalar ham bizga ana shunday epik ijodkorlardan meros qolgan. Ularni mutaxassislar atroflicha o'rganmoqda. Biroq ulardagi epik ijodkor obrazi yetarlicha tadqiq etilmagan.

Ko'plab epik asarlarga sochilib ketgan Qo'rquq ota, Soqibulbul, Oshiq G'arib, Oshiq Alband, Oshiq Mahmud kabi obrazlarni qiyosiy tahlil etsak, ular xalqning baxshi, o'zon, oshiqlar haqidagi qadim tasavvur va e'tiqodining sintezi sifatida paydo bo'lgani, baxshichilikning kult darajasiga ko'tarilganini ko'ramiz. Qolaversa, hozirgacha tadqiqotchilar e'tiboridan chetda bo'lgan, biroq folklorimizda muhim ahamiyatga ega “Ollonazar Olchinbek”, “Ko'r G'oyib” kabi baxshi, ijodkor obrazi asosiy o'rinda turadigan asarlar borligi ushbu mavzuni yanada chuqur o'rganishni talab etadi.

Ustoz folklorshunoslar Hodi Zaripov hamda To'ra Mirzayev baxshilarni ikki toifaga — ijodkor, ya'ni badihago'y hamda ijrochi baxshilarga ajratadi. Bu dunyo eposida bor. Masalan, yunonlarda aed va rapsod, hindlarda vyasu va valkikiga bo'linadi.

“Odiseya”da Demidok va Femiya obrazlariga duch kelamiz. Ular ham yetakchi, ham epizodik ko'rinishda ishtirok etadi. Femiya Itaka baxshisi bo'lib, Odisey safarga ketganida Penelopaga uylanish uchun kelgan da'vogarlar qo'shiq kuylab beradi. Uning asardagi ishtirokini epizodik ko'rinish sifatida baholash mumkin. Demidok esa “Odiseya” qahramonlaridan biri va ayni paytda baxshi. Dostonda u uch o'rinda o'z san'atini namoyish etadi va yetakchi obrazlardan biri sifatida ko'rinadi.

“Odiseya”ning sakkizinchi qo'shig'ida shohning farmoni bilan Demidok davraga chorlanadi. Baxshi ularga Odiseyning boshidan o'tganlarini doston qilib kuylab beradi. Muhim jihati, Demidok ijro etgan dostonni Odiseyning o'zi ham eshitadi. Uning qayg'uli hikoyasi, yana ham to'g'rirog'i, ijrosi davradagilarning barchasini yig'latadi. “Odiseya”dagi bu kabi lavhalar Demidokning shunchaki ijrochi emas, ijodkor baxshi ekanidan dalolat.

\*\*\*

“Dada Qo'rquq kitobi”, “Ollonazar Olchinbek” dostoni, “Oshiq...” turkumida baxshi yetakchi obraz sifatida gavdalanaadi. “Dada Qo'rquq kitobi” muqaddimasi “Rasul alayhissalom zamoniga yaqin bayot urug'idan Qo'rquq ota degan bir er elga tanildi. Ul kishi o'g'uzning donishmandi edi. Aytgani ijobat bo'lardi. G'oyibdan turli xabarlar berardi. Haq taolo uning ko'ngliga ilhom solardi.

Qo'rquq ota o'g'uz qavmining mushkulini hal etardi. Har ne ish bo'lsa, Qo'rquq otadan maslahat olmaguncha amalga oshirilmasdi. Nimaniki buyursa, qabul qilardilar, so'ziga amal qilib, aytganini o'rniqa keltirishardi”, deb boshlanadi. Muqaddimada Qo'rquq ota hayoti islom tarixi bilan chambarchas bog'liq holda berilsa-da, quyma fikr, maqol o'mida kelgan satrlarda Qo'rquq ota bilan bog'liq qatlam juda qadimiy ekani seziladi.

Bu muqaddimadan quyidagilarni anglash mumkin. Qo'rquq ota bayot, ya'ni o'g'uz urug'larining biridan. U o'z elida, ya'ni o'g'uzlar ichida er bo'lib elga tanilgan. Butun el, o'g'uz xalqining katta donishmandi. Donishmandi bo'lganda ham oddiy donishmandi emas, u er bo'lib tanilgan donishmand, buning ustiga bashoratchi. Bu xislatlar unga bekorga berilmagan. Chunki u epik ijodkor, ya'ni baxshi.

“Dada Qo'rquq kitobi” muqaddimasida uchta obraz — Qo'rquq ota, baxshi va



**Jabbor ESHONQULOV,**  
**Alisher Navoiy nomidagi davlat**  
**adabiyot muzeyi direktori,**  
**filologiya fanlari doktori,**  
**professor**

muallif ishtirok etayotganini ko'ramiz. Muqaddima shu uch kishi tilidan hikoya qilinadi. Odatda folklor namunalarida muallif bo'lishi mumkin emas. Biroq “Dada Qo'rquq kitobi” yozma holatda yetib kelgan. Shuning uchun asarda muallifga tegishli matnlarni ilg'ash mumkin. Faqat bu ko'rinnmas muallif baxshilardan qolgan



o'gitlarni takrorlayotgani, o'rni-o'rni bilan Qo'rquq ota va baxshilar so'zini aynan keltirishiga guvoh bo'lamiz. Bunday holatni boshqa dostonlarda ham uchramiz. Ya'ni o'zidan oldingi baxshilar ijro etgan matnini boshqa baxshi o'z ijrosida tinglovchiga yetkazishda ustozlarning nomi tilga olinadi.

Muqaddimadagi “Dada Qo'rquq kelib qoq doston kuyladi, bu “O'g'uznoma”ni tuzdi, qo'shdi, shunday dedi” jumlası epik an'ana davomiyligini, o'z davrida mashhur bo'lgan, doston kuylagan Qo'rquq otadan qolgan ijrochilik san'ati, doston kuylash an'anasi keyingi avlodda ham davom etganini anglatadi. Boshqacha aytganda, Qo'rquq otadan qolgan ustoz-shogirdlik davom etyapti. Undan kelayotgan qutlug' so'z jonli ijroda boshqa baxshilar tomonidan tinglovchiga yetkazilyapti va ayni paytda ko'z o'ngimizda baxshi obrazini gavdalandiradi.

“Dada Qo'rquq kitobi”ning har bir hikoyasida Qo'rquq ota asosiy obraz sifatida gavdalanaadi. Urug'boshi, yo'lboshchi va epik ijodkor bo'lgan Qo'rquq ota haqidagi mifologik tasavvurlar bir tushunchani — baxshi va shomon aslida bir sinkretik obrazning turli davrdagi turlicha ko'rinishi ekanini isbotlaydi.

Bunday evrilishlar xalqning tarixi, qahramonlik o'tmishi va ma'naviyati sarchashmasi bo'lgan epik ong taraqqiyotida muhim o'rin tutgan. Eposdagi magik jihatlar asta so'nib, shomon, tabib, baxshi, yo'lboshchi funksiyalari bir-biridan tobora farqlana borgan. Demak, u millatning yo'lboshchisi, donishmandi, qahramoni. Lekin birinchi

galda patriarx shomon qiyofasini o'zida mujassam etgan ulkan epik ijodkordir. Uning karomatgo'yligi, g'oyibdan sirlar so'yilashiga ham baxshichiligi sabab.

“Dada Qo'rquq kitobi”dagi “Dada Qo'rquq tilidan o'zon aytar” jumlası bir tomondan mazkur yodgorlik epik an'ana namunasi ekanini urg'ulaydigan jihat bo'lsa, ikkinchi tomondan eposda Qo'rquq otani o'ziga pir va ustoz deb bilgan boshqa baxshilar obrazini ham ko'z oldimizda gavdalandiradi.

“Ollonazar Olchinbek” nomli o'zbek xalq dostoni markazida xalq baxshisi obrazi turgani uchun unda boshqa baxshilarning ham obrazi bor. Ular bosh qahramonni to'liq, mukammal tasvirlashga, dostonning asosiy g'oyasini ifodalash, voqealar rivojini ta'minlab, doston syujetini shakllantirishga xizmat qiladi.

Ushbu doston bosh qahramoni Ollonazar an'anaga ko'ra, epik ijodkorlikning tarixiy yo'lini bosib o'tgan obraz. Shu sabab turkiy xalqlar folkloridagi epik baxshilar talqinisiz bu obraz mohiyatini to'la tushunish qiyin.

Xorazm dostonchilik an'anasi yetuk namunasi bo'lgan “Oshiq G'arib va Shohsanam”da qahramon oshiq — baxshining o'zi. Uning butun jasorati baxshi salohiyati orqali namoyon bo'ladi. Aslida, “Oshiq...” turkumidagi dostonlar ham ishqiy romantik mavzuda. Har ikki turkumdagi dostonlarda qahramonning yori uchun kurashi haqida so'z boradi.



66

**“Alpomish” dostonidagi mazkur parchani “Dada Qo'rquq kitobi”dagi Bamsi Bayrak hamda Homerning “Odiseya” dostoni bilan solishtirganda mohiyati yanada teran ochiladi. Bamsi Bayrak xuddi Alpomish kabi zindonbandlik, ya'ni ramziy ma'nodagi o'lib tirilishdan so'ng o'zon qiyofasida yorining to'yi ustiga borib qoladi va u yerda o'z san'ati, ijrochilik mahoratini namoyish etadi.**

“Go'ro'g'li” turkumidagi dostonlarda soqiy, baxshi ko'pincha asosiy qahramonning yaqin yo'ldoshi, ko'makchisi bo'lib gavdalanaadi. Biroq Go'ro'g'li o'zi bilan bog'liq turkumda bosh qahramon xuddi “Alpomish” dostonidagi kabi epizodik ko'rinishlarda namoyon bo'lsa-da, uning aynan ijrochi, ya'ni baxshi qiyofasida gavdalanishini ko'rishimiz mumkin. Shuning uchun Go'ro'g'li, Alpomish, Bamsi Bayrak kabi obrazlar bir mezonda turib tadqiq etishni talab qiladi.

Alpomish yetti yillik bandlikdan so'ng Qultoy qiyofasida yori Barchinning to'yi ustiga kirib boradi. Alpomishning bu qiyofa almashtirishi zamirida qanday mifologik tasavvur yotganini qator maqolalarda tadqiq etganimiz. Bu o'rinda Alpomishning aynan Qultoy qiyofasiga kirishi va to'ydan oldin Bodombikach bilan, so'ng Barchin bilan o'lan aytishuvi qiziqtiradi.

Aslida, “Qultoy”ni hamma taniydi, davraga oralagan Alpomish ekanini biladi, biroq sir ochilmaydi. Bodombikachdan so'ng Qultoy qiyofasidagi Alpomishning Barchin bilan o'lan aytishgachgina maqsad oydinlashadi. Ya'ni yetti yillik zindonbandlikdan so'ng qahramonning boshqa bir maqomatga ko'tarilgani, uning yurtga egalik qila oladigan, so'zga chechan baxshi, el donishmandi darajasiga yetgani isbotlanadi. Shuning uchun to'lan aytishmaguncha uning qiyofasi ochilmaydi. Aytishuvda Alpomish g'olib bo'ladi. Buni Barchin ham tan oladi. O'lan aytishuv sahnasining doston yakunidan o'rin olishi sababi shunda.

“Alpomish” dostonidagi mazkur parchani “Dada Qo'rquq kitobi”dagi Bamsi Bayrak hamda Homerning “Odiseya” dostoni bilan solishtirganda mohiyati yanada teran ochiladi. Bamsi Bayrak xuddi Alpomish kabi zindonbandlik, ya'ni ramziy ma'nodagi o'lib tirilishdan so'ng o'zon qiyofasida yorining to'yi ustiga borib qoladi va u yerda o'z san'ati, ijrochilik mahoratini namoyish etadi.

“Odiseya”da Odisey o'z yorining to'yi ustiga kelgach, uni aslida, xizmatkorlari ham, o'g'li ham, saroydagilar ham tanib turadi. Hatto qahramon Penelopaga uylanish uchun kelgan soxta xushtorlarni kamonidan o'q uzib o'ldirganda ham.

Dostonning yakuniy qismlaridan biri — yigirma uchinchi qo'shig'ida Yevrikleya Penelopaga erining uzoq safardan qaytib kelgani xabarini beradi. Biroq Penelopa bu xabardan quvonmaydi, Odiseyni tan olgisi kelmaydi. O'g'li Telemax ham onasiga otasi qaytib kelganini uqtirmoqchi bo'ladi. Biroq Penelopa uning o'tinchlarini ham inobatga olmaydi. Toki yotoqdagi o'zlariga ma'lum bo'lgan sir haqida Odisey bilan tonggacha aytishuv qilmaguncha. Odisey Penelopaga o'zlarining tarixini aytib, ya'ni ijro qilib berishi, boshqacha aytadigan bo'lsak, Odisey ham Penelopa bilan aytishuvda o'zining chechanlik qobiliyatini namoyish eta olishi va Penelopa buni tan olishi shart edi.

Alpomish, Bamsi Bayrak, Odiseyning o'zga qiyofaga kirib, o'z uyiga qaytishi va aytishuvda yorini yengishi qahramonlar hayotida yangi bosqich, yangi bir maqomat, yangi hayot boshlanishidan darad berib, epik ijrochi ishtirok etgan bunday parchalar dunyo eposidagi o'xshash tasavvur va qarashlarning

66

**“Alpomish” dostonidagi mazkur parchani “Dada Qo'rquq kitobi”dagi Bamsi Bayrak hamda Homerning “Odiseya” dostoni bilan solishtirganda mohiyati yanada teran ochiladi. Bamsi Bayrak xuddi Alpomish kabi zindonbandlik, ya'ni ramziy ma'nodagi o'lib tirilishdan so'ng o'zon qiyofasida yorining to'yi ustiga borib qoladi va u yerda o'z san'ati, ijrochilik mahoratini namoyish etadi.**

turli matndagi badiiy talqini ekanini urg'ulaydi.

Baxshi obrazi dunyo eposida xos mushtarak hodisa bo'lib, epik asarlarda muhim o'rin tutadi. Mazkur obrazning ildizi so'z magiyasi bilan bog'liq tasavvurlar hosilasi va uning o'zagi qadimiy marosimlarga borib tutashadi.

Epik ijodkor obrazining ishtirokiga qarab bayon etilayotgan asar qaysi qonuniyat asosida yaratilgani, hatto keyinchalik yozuvga ko'chirilgan namunalarda ham uning qanday an'analr asosida taraqqiyot bosqichlarini boshdan kechirganini aniqlash imkonini beradi.

Dunyo eposidagi bunday obrazning qiyosiy o'rganilishi milliy ma'naviyatimiz durdonalari hisoblangan dostonlarning yuzaga kelish tarixi, taraqqiyot bosqichlari, jahon badiiy so'z san'atida tutgan o'rini belgilab beradi.